

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

SAFAROVA SEVARA FAXRIDDIN QIZINING

**MUHAMMAD YUSUFNING UMUMTIL IBORALARIDAN
FOYDALANISH MAHORATI HAQIDA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar:  **f.f.n.Sh.Mahmadiyev**

Rasmiy taqrizchi:  **f.f.n.M.Vafoyeva**

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2018-yil 28- maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (11 -son bayonnoma).

Kafedra mudiri:  **f.f.d.A.Pardayev**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2018-yil ____ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

YaDAK raisi:

prof.Sh.Shahobiddinova

A‘zolari:

SAMARQAND - 2018

MUNDARIJA:

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.....3-5

I Bob. MUHAMMAD YUSUF POEZIYASI TILI VA USLUBINING

O'RGANILISH MASALALARI.....6-16

1.1. Muhammad Yusuf she'riyati tili va uslubi masalalarining
o'rganilishi.....6-11

1.2. Muhammad Yusuf she'riyatida qo'llangan iboralarning shakl va ma'no
munosabatiga ko'ra turlari11-16

II Bob. MUHAMMAD YUSUF POEZIYASIDA

FRAZELOGIZMLARNING USLUBIY VAZIFALARI.....18-39

2.1. Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishi.....18-25

2.2. Muhammad Yusuf poeziyasida frazemalarning uzual va okkazional uslubiy
vazifalari25-39

III Bob. MUHAMMAD YUSUFNING FRAZEMALARDAN IJODIY

FOYDALANISH MAHORATI HAQIDA.....40-62

3.1. Muhammad Yusuf poeziyasida frazemalarni struktur-semantik o'zgartirish
usullari40-53

3.2. Muhammad Yusufning ijodiy frazema yaratish mahorati.....53-56

Xulosa.....57-58

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....59-62

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik tufayli qadriyatlarimiz, ayniqsa, ona tilimizni e'zozlashga bo'lgan ehtiyoj, uni o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek tilini yuksak madaniy tillar maqomiga ko'tarish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ham ana shu olamshumul vazifalar sirasiga kiradi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda mazkur sohalaridagi dolzarb masalalarning yechimini topishga ham xizmat qilishini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim¹. Mazkur bitiruv malakaviy ishi ham aynan shu boradagi masalalarga bog'liqligi bilan alohida dolzarblik kasb etadi.

Shoir Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xosligi, xalqonaligi va rang-barangligi bilan boshqa shoirlar ijodidan farqlanadi. Shoir ijodidagi o'ziga xoslikni ta'minlovchi badiiy til vositalarini, shu jumladan, umumtil iboralaridan ijodiy foydalanish mahoratini, iboralarning uzual va okkazonal uslubiy vazifalarini o'rganish va tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shu kungacha Muhammad Yusuf ijodi adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan muayyan darajada o'rganilgan. Ayniqsa, bu borada O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mirzayev, H.Umurov, S.Mirvaliyev, Q.Yo'ldoshev, U.Hamdam, Z.Eshonova, I. Azizova, N.Rahimjonov, M.Davronova kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlari xarakterlidir². O'zbek tilshunosligida esa B.Yo'ldoshev, G.Muhammadjonova, D.Shadiyeva, D.Yo'ldosheva, U.Rashidovalarning bu boradagi ilmiy izlanishlari

¹ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида //Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль, №28 (6722). – Б.1-2.

² Шарафиддинов О. Замон – қалб – поэзия. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. – 320 б; Каримов Н. М. Юсуф ва ҳозирги ўзбек шеърляти // Ўзбек тили ва адабиёти, –Тошкент, 2004. – № 5 –Б. 16– 19; Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 268 б; Умуров Х. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Шарқ, 2002. - 256 б; Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. – 133 б; Йўлдошев Қ. Ёник сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 545 б; Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. –Тошкент: Фан, 2007. – 195 б; Эшонова З.Илдизи нақд юракда // Ёшлик.–Тошкент,1987 – № 2. –Б. 75-77; Раҳимжонов Н. Муҳаммад Юсуф лирикасида фольклор аънаналари ва бадий образлар индивидуаллиги // Ўзбек тили ва адабиёти, –Тошкент, 2004. -№ 5. 19-22; Давронова М. Муҳаммад Юсуфнинг поэтик маҳорати. филол.фан.номз.. дис. автореф. – Тошкент, 2014.– Б. 148.

kuzatiladi³. Ayniqsa, bu tadqiqotlar orasida D.Shadiyevaning kuzatishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Unda shoir she'riyati lingvopoetik jihatdan badiiy tasvir vositalarining poetik imkoniyatlari asosida tahlil qilingan. Mavzumiz bilan uzviy aloqador bo'lgan barqaror birikmalardan iboralar ham ma'lum bir o'rinda tahlil qilingan. Shuning uchun biz mazkur malakaviy bitiruv ishida shoir poeziyasida qo'llangan iboralarning lingvistik tabiatini, o'rni bilan uslubiy imkoniyatlarini yoritishni maqsad qilib olganmiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Shoirning badiiy til vositalaridan foydalanish mahoratini va bu orqali o'zbek tilini rivojlantirishga qo'shgan hissasini aniqlash ishning asosiy maqsadi sanaladi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- ✓ Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan umumtil iboralarini topish va to'plash;
- ✓ Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan iboralarni tahlil etish;
- ✓ Iboralarning shakl va ma'no turlarini aniqlash;
- ✓ Iboralarning uzual va okkazonal uslubiy vazifalarini tahlil etish;
- ✓ Muhammad Yusufning iboralardan ijodiy foydalanish mahoratini aniqlash;
- ✓ Shoirning til birliklaridan, umumxalq tilidan, xususan, iboralardan individual foydalanish mahorati ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining obykti va predmeti. Muhammad Yusufning 2007-yilda nashr etilgan "Saylanma" si bitiruv malakaviy ishining obykti sifatida olindi⁴.

Tadqiqot usuli. Tadqiqotni yoritib berishda uslubiy, qiyosiy tahlil va tavsiflash usullaridan unumli foydalanishga e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Muhammad Yusuf she'rlarida qo'llangan iboralarni tahlil qilish va shoirning ijodiy mahoratini o'raganish muhim

³ Йўлдошев Б, Рашидова У. Муҳаммад Юсуф поезиясида фразеологизмларнинг қўлланиш хусусиятлари // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда.– Қарши, 2008.–Б. 60-64 ; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвopoetik тадқиқи: Филол.фан.номзоди ...дис. автореф.– Тошкент, 2003.– Б. 23; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвopoetikаси. Филол.фан.номзоди ...дис.автореф.– Тошкент, 2007.–Б. 25;

⁴ Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. – Тошкент.: "Шарк", 2007. – Б. 288.

ahamiyatga ega. Shuningdek, shoirning ijodi, uning badiiy va uslubiy mahoratini o'rganishda o'quv-uslubiy qo'llanmalar, risolalar, shoir individual mahoratini ko'rsatuvchi frazeologik lug'atlar yaratishda tadqiqot ishidan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishiga shoir "Saylanma"sida qo'llanilgan iboralarning qisqacha izohli lug'ati ilova qilindi.

I BOB.

MUHAMMAD YUSUF POEZIYASI TILI VA USLUBINING O'RGANILISH MASALALARI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida yozuvchilar uyushmasi uchun yangi bino qurilib, hududlarda ulug‘ adib va shoirlarimiz nomlari bilan atalgan ijod maktablari madaniyat va istirohat bog‘lari bunyod qilinmoqda. Adabiyotimiz atoqli namoyondalarining yubiley sanalari munosib nishonlanmoqda⁵. Shu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 26-aprel kuni yurtboshimiz shoir Muhammad Yusufning tug‘ilib o‘sgan Vatani Andijon shahriga tashrif buyurdi va shoirning uy muzeyini va maktabini tashkil etish haqida o‘zining qator taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi. Bu ishlarning barchasi shoirga yuksak ehtirom va e‘tibor nishonasi bo‘lib, uning nomini abadiylashtirishga zamin yaratadi. Bitiruv malakaviy ishimizning 1-bobi ham aynan Muhammad Yusuf ijodining o‘rganilishiga bag‘ishlanadi.

1.1. Muhammad Yusuf she‘riyati tili va uslubi masalalarining o‘rganilishi.

O‘zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodida qo‘llangan frazemalar to‘liq tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Tadqiqotimiz davomida shoir ijodiga va hayotiga bog‘liq ayrim ma‘lumotlarni aytib o‘tishni lozim deb bildik. Biz quyida bildiradigan fikrlarimiz shoir ijodiga chizilgan betakror chizgilar ekanligiga hech shubhamiz yo‘q. Uning ijodi, she‘rlari haqida har qancha gapirsak oz. U o‘z ijodi orqali chinakam xalqona o‘zbek she‘riyatining tamal toshini qo‘yib ketdi, desak sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma‘naviyati va ong-u tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste‘dodi, betakror

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи, 2018-йил 6-апрел, №67 (7075). – В.4.

badiiy asarlari, ijtimoiy faoliyati bilan katta hissa qo'shgan, asarlari orqali o'quvchilar qalbida hayrat va hayajon uyg'otib kelayotgan betakror ijodkoridir.

Manzili va maqsadi aniq karvonda yuksiz ulovning o'zi bo'lmaganidek, Muhammad Yusuf ko'nglidan el qalbiga yo'l olgan so'z karvonining har bir satrida ona Vatan – O'zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, el xizmatiga kamarbastalik, zahmatkash va ulug' o'zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, samimiyat va jo'shqin ehtiros bilan yo'g'rilgan chuqur ma'no, ohang, rang va joziba mujassamdir. Muhammad Yusuf she'riyati haqiqiy o'zbekona she'riyat sanaladi. Uning har bir asari ijodkor shaxsi va she'ri kabi tugal bir qiyofa kasb etganida nechog'li ta'sirchan kuchga aylanishga qodir ekanini namoyish etib turadi. U mamlakatimiz ozodligini hech ikkilanmay, Qodiriy va Cho'lpon kabi ulug' ijodkorlarning ko'ksini kuydirib ketgan buyuk armon ijobati sifatida qabul qildi. Shu bois butun borlig'ini, iste'dodini Vatan madhini tarannum etishga bag'ishladi. Muhammad Yusuf ijodiga xos yana bir muhim xususiyat – bu uning she'riyatida oltindek yarqirab turuvchi soddalik, xalqonalikdir. Uning har satri, har bayti, bir qarashda oddiy, ammo teran, obrazli mushohadalar bilan ziynat topgan. Biron bir she'rida mijg'ov gaplar, mubham tuyg'ular, mantiqsiz iboralar, nursiz kechinmalarni uchratmaysiz. U hech qachon mayda tuyg'ularga berilmaydi. Fikrlari- salmoqli, ifodasi ohorli, tuyg'ulari esa yorqin. Muhammad Yusuf hayotni butun murakkabliklari bilan idrok etadi, jamiyatdagi va odamlardagi illatlar, noqisliklarga ham ko'z yummaydi. Muhammad Yusuf o'zining sermahsul ijodi bilan vaqtli matbuotda ham tez-tez chiqib turdi. Uning ilk she'riy to'plami *“Tanish teraklar”* nomi bilan 1985-yilda e'lon qilingan. Shundan so'ng shoirning *“Bulbulga bir gapim bor”*(1987), *“Iltijo”*(1988), *“Uyqudagi qiz”*(1989), *“Halima enam allalari”*(1989), *“Ishq kemasi”*(1990), *“Ko'nglimda bir yor”*(1990), *“Bevafo ko'p ekan”*(1991), *“Yolg'onchi yor”*, *“Erka kiyik”*(1992), *“Osmonimga olib ketaman”* singari o'nlab she'riy majmualari kitobxonlar qo'liga yetib bordi. U yirik poetik janrlarga murojaat etib, *“Osmonning oxiri”*, *“Qora quyosh”* singari dostonlar yaratdi. Yurtimizning mustaqillikka erishishi Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning

millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go'zal she'rlari o'zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning "Vatanim", "Xalq bo'l elim", "Dunyo", "Inshoalloh", "O'zbekmomo", "Iqror", "Tilak" singari o'nlab she'rlari chinakam she'riyat yurtni qanday kuylamog'i lozimligini isbotlagan asarlar bo'lib qoldi.

Ma'lumki, she'r – shoir olamining mohiyati. U ijodkorning muayyan kayfiyati kechinmasidan dunyoga keladi. Shoir kechinmalarining qog'ozga qay shaklda ko'chishi esa, uning tafakkuri yo'sinidan darak beradi, she'rlarida o'zini namoyon qiladi. Xususan, Muhammad Yusuf ijodida milliy ruhning xalqona yo'lda namoyon bo'lishi shoirning fikrlashi, turmush tarzi, dunyoqarashi, binobarin, ruhiyatidagi talqinlar, hissiyot mavjlarini boshqacha ifodalay olmasligi dalolatidir. Muhammad Yusuf she'riyat nazariyasi, badiiy san'atlar haqida ko'p gapirishni xush ko'rmasdi. Ayniqsa, birovga bunday yoz, unday yoz deb nasihat berishni juda yomon ko'rardi. Muhammad Yusuf ijodini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin:

1. Birinchi davr: Mustaqillikkacha yaratilgan asarlari,
2. Ikkinchi davr: Mustaqillik davri she'riyati.

Uning ijodida har ikki davr tarixiy jihatdan o'zining o'chmas izini qoldirgan. Birinchi davrda ozodlikka intilish iztiroblari qalamga olinadi, ikkinchi davrda esa Mustaqillikdan masrurlik, milliy g'urur, Mustaqillikni ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ulari madh etiladi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan madhi alohida o'rin tutadi. Yuraklardagi tuyg'ular dastlab - onaga, qadrdon uyiga, yoriga bo'lgan muhabbat ulkanlashib, ona yurtga, Vatanga bo'lgan muhabbatga aylanadi. Ona yurt mehri kishini shoir qiladi. Shoirni esa o'tda toblaganday toblaydi. Aslida Vatan mavzusida qalam tebratmagan shoir yo'q. Ammo har bir shoir Vatan haqida o'z tilida kuylaydi, o'z mahorati darajasida talqin etadi. Muhammad Yusuf nazdidagi Vatan butunlay boshqacha. U kuylagan Vatan hamisha katta harflar bilan yoziladigan yaxlit tushunchaga aylanadi. Vatan so'zi uning tilida mutlaqo yangicha yangraydi. Muhammad Yusuf she'rlarining mavzusi hayotdagi muammolardan, odamlarning iztiroblari, dardu g'amlari,

orzu-hayollaridan olinadi. She'rlarining badiiy ifodasi esa bag'oyat xalqona, sodda. U dehqonning jaydari tilida yozadi. Shuning uchun uni xalq sevadi, she'rlarini ardoqlaydi. Muhammad Yusuf haqiqiy xalq shoiri edi. Xalqning tilini topgan, dilini topgan shoirni xalq abadiy unutmaydi. Mana shunday ijodi betakror, iqtidori beqiyos shoirning she'riyati haqida biror bir fikr bildirmaslikning o'zi loqaydlikdir.

Muhammad Yusuf she'riyati XX asrning 90-yillar adabiyotida muhim voqea bo'lgan edi. Shoir hayoti va ijodi haqida talaygina maqolalar matbuot nashrlarida chop etilgan. Lekin e'lon qilingan maqolalarning aksariyati shoirning yorqin xotirasiga bag'ishlangan. Uning ijodini badiiy va lisoniy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar esa sanoqligina. Muhammad Yusuf o'ziga xos shoir ekanligi bilan, she'rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan keskin farq qiladi. Barcha badiiy adabiyot vakillarining so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mana shu jihat orqali yozuvchi va shoirlarning individual uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligida ijodkorlarimizning badiiy nutqining o'ziga xosligi, ularning til vositalaridan qay darajada foydalanish kabi jihatlar bosh mavzu sifatida o'rganilib kelinmoqda. Asosan, shu bugungi kungacha o'rganilgan tadqiqotlarning asosini nasriy asarlar tashkil qiladi. Bu ishlarning barchasi yuqori ilmiy salohiyatga va saviyaga ega ekanligini e'tirof eta olamiz. She'riy asarlarga ham alohida e'tibor qaratilayotganligi ham maqsadga muvofiqdir. Lekin ularning sonini ko'paytirish esa tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Shunday ishlar ichida G.Muhammadjonovanning "80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi"(2003)nomli dissertatsiyasini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu ishda *Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A'zam O'ktam, Iqbol Mirzo* kabi shoirlar ijodi bilan bir qatorda Muhammad Yusuf she'riyati ham lingvopoetik jihatdan qisman bo'lsa-da tadqiq etilgan⁶. Bu ilmiy ish

⁶ Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. номзоди...автореф. –Т, 2004.-Б.23.

ham shoir ijodini o'rganishga sabab bo'la oladi. Chunki, bu ijodkorning she'riyatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishga deyarli e'tibor qaratilganicha yo'q. Shu sababli biz ham shoirning ijodini, she'rlarida umumtil iboralaridan qay darajada foydalanish mahoratini o'rganib chiqishga harakat qildik. Bundan tashqari, "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi"(2007) mavzusida Dilfuza Shadiyeva nomzodlik dissertatsiyasini ishlab chiqqan⁷. Bu ishda Muhammad Yusuf she'rlarini lingvopoetik jihatdan o'rganib, unda tilning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, umuman tildan foydalanishdagi mahoratini tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Bu ish orqali shoirning o'zbek tili rivojidadagi o'rnini belgilashga alohida ahamiyat bergan. Bu tadqiqot ishida Muhammad Yusufning antitezadan foydalanishi, she'rlarida sinonimlar, iboralar va o'zbek xalq maqollarining qo'llanilishi haqidagi fikrlarini ham bildirib o'tgan. Tadqiqot ishida muallif Muhammad Yusufning hali o'rganilishi kerak bo'lgan, yechimini kutayotgan jihatlari haqida ham to'xtalib o'tgan.

O'tgan yillar ichida badiiy asar tilini tadqiq etishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarda badiiy asar tilini o'rganish usullari, uning maqsad va vazifalari haqida turli qarashlar asoslab berilgani haqida ham yuqoridagi nomzodlik ishida bayon etilgan, jumladan, X.Doniyorov va S.Mirzayevlar badiiy asar tilini o'rganishning ikki aspektini ko'rsatganlar:

1.Lingvistik aspekt. Bu aspektda adabiy tilning o'sish o'zgarishlarini, undagi Grammatik kategoriyalar va so'zlarning leksik-semantik o'zgarishlarini aniqlash, nazariy fikrlarni isbotlash uchun badiiy adabiyot tilidan ko'rgazmali material sifatida foydalanadilar.

2.Stilistik aspekt. Yozuvchining so'z tanlash san'ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati...kabi masalalar ustida fikr yutitilib, yozuvchining mahorati, uning o'ziga xos tili haqida hukm chiqariladi"⁸. Demak, shoir ijodini o'rganishda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratganligi muallifning ushbu keltirgan

⁷ Шадиева Д.Ш. Мухаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси. Филол.фан. номзоди...автореф. –Т , 2007. - Б.25.

⁸ Shu avtoreferat, 8-bet.

ma'lumotlaridan ham ayon bo'lib turibdi. Muhammad Yusuf tilini o'rganishda qaysi tasviriy vositalardan foydalanishiga, jonli til boyliklaridan qanday foydalanishiga, so'z va iboralar hosil qilishiga alohida diqqat berish lozimligi ushbu tadqiqot ishidan ham ma'lum. Umuman olganda, shoir she'riyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratilishida muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ham xizmatlari nihoyatda beqiyosdir. Buni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shoir "Saylanma"larining nashr ettirilishida ham jonbozlik ko'rsatganlar. Shu o'rinda muhtaram Birinchi prezidentimizning shoir Muhammad Yusuf haqida bildirgan quyidagi "Muhammadjon noyob iste'dod egasi, odamlarga mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Uning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda doimo saqlanadi"⁹, – degan fikrlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov istibdod iskanjalaridan ozod inson qalb kechinmalari butun rang-barangligi bilan tarannum etilayotgan mustaqillik davri adabiyoti haqida so'z yuritganda, beixtiyor, ana shu davr adabiyotining yorqin siymolaridan biri O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodi yodimizga keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to'g'risida" gi qarori ham aynan shoirning ijodiga qaratilgan yana bir e'tibordan darak beradi.

Muhammad Yusufning milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviyati, ongu tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste'dodi, betakror badiiy asarlari, ibratli ijtimoiy faoliyati bilan katta hissa qo'shganligini hech shubhasiz, e'tirof eta olamiz. Zero, badiiy adabiyot xalqning ruhiy olamini, ichki dunyosini so'z vositasida ochib beradigan, kishilarni ruhlantira olishga, qanoatlantirishga qodir buyuk bir san'at ekanligi barchamizga ma'lum. U insonning kasbidan qat'iy nazar, kattadan-kichik barchaga birdek barobar aziz hisoblanadigan ne'matdir. Mana shunday buyuk va qadrlı ne'matdan bahramand bo'la olgan buyuk iqtidor sohibi Muhammad Yusuf ham o'z

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуф таваллудининг 60 йиллигини нишонлаш тўғрисида"ги қарори // Халқ сўзи. -Т. 2014.

ko'ngil kechinmalarini, dardu hasratlarini qog'ozga ko'chira olgan, insonlarning qalb dengizini to'lqinlantira olgan beqiyos ijodi bilan adabiyot sahifalarida o'chmas iz qoldirdi. Muhammad Yusuf she'riyatining eng oliy fazilati, fikrimcha, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she'rlarini jilolantirib, bezab, ularga betakror ko'rku tarovat bag'ishlaydi. Eng yaxshi fazilatlaridan yana biri - loqaydlikdan yiroqlik, hayotga befarq emaslik. Kuykanak ko'ngil, ammo yig'loqilik, qo'l qovushtirib taqdirga tan berib o'tirish unga yot tushunchadir. U ko'rgan yoki nafratlangan narsasini darhol ifodalashga intildi, qo'liga qalam oldi. She'riyatning kuch-qudratini hech qanday mezon bilan o'lchab bo'lmaydi. U shunday san'atki, insonning eng nozik his-tuyg'ulariga ta'sir etadi. Albatta, bu shoirning badiiy mahorati bilan bog'liq. Nemis shoiri va mutaffakiri Gyote "Shoir lirikada benihoya ko'p rol ijro etuvchi aktyordir", degan fikrlarni bildirib o'tgan. Bugungi she'riyatimizning yetakchi tamoyillarini belgilab beruvchi shoirlar sirasidan joy olgan Muhammad Yusufning she'rlari yuqoridagi fikrni to'la tasdiqlaydi. Hozirgi o'zbek she'riyatida hayotni chuqur idrok etish va idrok etilgan hayotni yangicha shakl va ohanglarda badiiy aks ettirishga intilish tamoyili ko'zga tashlanadi. She'riyatimizda ana shu tamoyillarni o'z ijodida mujassamlashtirgan, o'ziga xos uslubga, o'z badiiy izlanishlariga ega bo'lgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf edi.

1.2. Muhammad Yusuf she'riyatida qo'llangan iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Birinchi bobning bu bo'limi o'z navbatida ikki guruhga bo'lib o'rganildi:

- a) Ma'nodosh iboralarning lingvopoetik xususiyatlari.
- b) Ko'p ma'noli iboralarning lingvopoetik xususiyatlari.

Muhammad Yusuf she'riyati o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ekanligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlariga o'zgachalik baxsh etgan omillardan eng asosiysi – uning o'ziga xos tili, o'ziga xos tasvir usuli, xalqona jaydarilik edi. Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarni lingvopoetik jihatdan tahlil etishda ularning shakl va ma'no turlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shoir ijodida iboralarning ma'nodoshlik xususiyatlari ham alohida ahamiyatga ega.

Iboralardagi sinonimlik ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan o‘rganildi. Jumladan, prof. Sh.Rahmatullayev “Frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon – bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi (sinonimik qatordagi) frazeologik birliklar obyektiv borliqdagi bir xil tushunchani anglatishi kerak va shu bilan birgalikda bir xil ma‘noni anglatishi shart¹⁰, – deya o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Sinonimik iboralar bir-biri bilan ma‘no nozikligi, uslubiy bo‘yog‘iga ko‘ra farqlanadi. Muhammad Yusuf ijodida ham bunday sinonimik iboralar qo‘llangan. Jumladan, “*jonini baxsh etmoq*” va “*jonini fido qilmoq*” iboralari *jonini qurbon qilishga ham tayyor bo‘lmoqlik, har qanday holatda ham jonini bermog, jonini ham ayamalik* degan ma‘nolarni ifodalaydi. Bu iboralarning ikkalasi ham badiiy uslubga taalluqli bo‘lib, shoir she‘rlarida quyidagicha ifodalangan:

*Kindik qoni tomgan tuproq unga- shon,
Kerak bo‘lsa, beso‘z baxsh etar u jon,
Ko‘krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o‘g‘longa o‘xshaydi o‘zbek (178-b).*

*Bas, senga joni fido
Mardi maydonlar kerak,
Botir o‘g‘lonlar kerak,
Qodir o‘g‘lonlar kerak...(244-b).*

Shoir “Inson” nomli she‘rida qo‘llagan “*jonini tikmoq*” iborasi ham yuqoridagi iboralarga sinonim bo‘la oladi. Bu iboralar sinonimik uyani tashkil qiladi. *Jonini tikmoq* iborasi O‘TIFLi (99-b)da *butun kuch va imkoniyatini hatto hayotini bag‘ishlamoq* ma‘nosida izohlangan va she‘rda quyidagicha ifodalangan:

*Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,,
Yig‘lasa ham Vatan, kulsa ham Vatan,
Unga jonni tikmoq tilaging bo‘lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan (184-b).*

¹⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966, -Б.264.

Frazeologik sinonimlar faqat ma'no nozikliklariga ko'ra emas, uslubiy bo'yog'i, qo'llanish doirasiga ko'ra ham o'zoro farqlanadi. Masalan, "jon bermoq" va "joni uzilmoq" iboralari ham ma'nosi va qo'llanish doirasiga ko'ra sinonimik qatorni tashkil qiladi. O'TIFLida bu iboralar *o'lmoq, so'nggi bora nafas olmoq* (94-100-b).

*O'g'lim, jigargo'sham, aytgin-chi nahot,
Achinmaydi joning onang holiga?
Meni to'shklarga mixlab qo'ydi bod,
Kelib bir ko'tarib chiqqin hovliga.
Qo'lingda jon berib o'lsam, mayliga... (259-b).*

*Butun emas shoirning noni,
Shoirlarning yuragi butun.
Qarzin uzmay uzilmas joni,
Haqqini unutishi mumkin (239-b).*

"Bag'ri tosh" iborasi O'TIFLi (33-b)da *tosh bag'ir, bemehr, mehrshavqatsiz* ma'nosida izohlangan. Shoir Muhammad Yusufning "Ey jufti halolim" she'rida quyidagicha ifodalangan:

*Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,
Sochingdagi oqlar bag'ri toshligim,
Bir shirin so'z aytmay, bitta gul tutmay,
Sen gulni so'ldirdi mening yoshligim (261-b)*

"Tosh ko'ngil" iborasi *ko'ngli qattiq, bemehr, rahmsiz* degan ma'nolarni ifodalaydi (O'TIFL,b-235). Yuqorida keltirilgan "bag'ri tosh" iborasi bilan sinonimlik hosil qiladi va umumiy ma'noda qo'llaniladi:

*Qachon xat yozgandim senga bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib
Yoningda yurmayman...*

Kechir meni singlim,

Kechir meni singlim (39-b).

Shoir ijodida qoʻllangan sinonim iboralarning sheʼrlarda aks etishi, maʼno xususiyatlari va qoʻllanilish doirasi xususida toʻxtalib oʻtdik.

Shoir sheʼriyatida bundan tashqari, koʻp maʼnoli iboralar ham uchraydi. Koʻp maʼnolilik tilshunoslikda polisemiya hodisasi deb ham yuritiladi. “Frazeologik polisemiya deyilganda iboraning oʻzi bittadan ortiq frazeologik maʼno anglatishi”– deb izohlanadi¹¹. Frazeologiyada iboralarning asosiy qismi bir maʼnolidir. Tilimizdagi iboralarning beshdan bir qismi ikki va undan ortiq maʼnoga egadir¹². Shoir ijodida qoʻllangan iboralarning polisemantik xususiyatlariga alohida toʻxtalib, “*boshni yerga egmoq*” iborasining ikki maʼnoda – *itoat qildirmoq, boʻysundirish* va *uyalmoq, hijolat boʻlish* maʼnolarida ham ishlatilishini koʻrish mumkin. OʻTIFLi da bu iboraning ikki maʼnosi izohlangan:
1. itoatkor boʻlmoq; 2. itoat qilmoq, boʻysunmoq.

Ne qilarding menga tegib sen,

Yengilmagan edim-yengib sen,

Boshlarimni yerga egib sen,

Qomatimni bukib qoʻyding-ku (14-b).

Baʼzan polisemantik iboraning bir maʼnosi juda kam ekspressivlikka, funksional xoslanganlikka ega boʻlsa, keyingi maʼnosi yuqori ekspressiv boʻyoqqa kitobiy xususiyatga ham ega boʻlishi mumkin. Masalan, shoirning ijodida qoʻllangan “*koʻngli toʻlmoq*” iborasi ham ikki maʼnoni ifodalaydi: a) *kimningdir qaysidir qilgan ishidan mamnun boʻlmoq;* b) *nimadandir qanoat hosil qilmoq, tinchimoq* (OʻTIFL,169-b). Demak, bu iboraning birinchi va ikkinchi maʼnosi ham ekspressiv boʻyoqqa ega:

Ne qilardi, oydekkina singlim boʻlsa,

Sharqiragan soydekkina singlim boʻlsa.

Toʻqqiz oʻgʻil tugʻsa koʻrib, koʻnglim toʻlsa,

¹¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.13.

¹² Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998,-Б. 62.

Jiyanim-ov...(146-b).

Shoirning bu misrasida “*ko‘ngli to‘lmoq*” iborasining ikkinchi ma‘nosi ifodalangan. Muhammad Yusuf ijodida bunday ko‘p ma‘noli iboralardan sermahsul foydalangani, ularning ma‘nosi misralar mazmuniga mos kelishi ham shoirning so‘z tanlashdagi iqtidoridan dalolat beradi. Shoirning “*Yoqub mergan*” nomli she‘rida qo‘llangan “*esiga kelmoq*” iborasi quyidagicha ifodalangan:

Endi ul zot yalloqilib yuraverar,

Invalidning mashinasin suraverar,

Uni ko‘rsam chol esimga kelaverar,

G‘ildiragi yuagimni ezaverar...

Yoqub cholga berishmagan “Zaporoj”ning! (159-b).

Bu ibora ham ikki ma‘noda ishlatiladi: a) *kimdir qandaydir narsani yoki voqeani xotirasida tiklamoq*; b) *nimanidir o‘ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq*. Shoir she‘rida Yoqub chol haqidagi o‘sha voqea doimo esiga kelaverishini, xotirasida qolib ketganligini bayon etib bergan. Shoirning ijodida qo‘llangan “*jon bermoq*” iborasi ham ikki ma‘noni ifodalaydi. Bu ibora *o‘lmoq, so‘nggi bora nafas olmoq* ma‘nosida ham, *hayot bag‘ishlamoq, barhayot qilmoq* ma‘nosida ham ishlatiladi. Demak, bu ibora bir vaqtning o‘zida ham hayot bag‘ishlash, ham hayotdan ko‘z yumish ma‘nosini ifodalashi mumkin.

O‘g‘lim, jigargo‘sham, aytgin-chi nahot,

Achinmaydi joning onang holiga?

Meni to‘shaklarga mixlab qo‘ydi bod,

Kelib bir ko‘tarib chiqqin hovliga.

Qo‘lingda jon berib o‘lsam, mayliga...

(259-b). Shoirning bu she‘rida “*jon bermoq*” iborasining birinchi ma‘nosi ifodalangan. Bu iboraning ikkinchi ma‘nosi ko‘proq kitobiy bo‘yoqqa ega bo‘lib, nutqimizda kam ishlatiladi.

Ko‘p ma‘noli iboralar tahlili ularning ma‘no strukturasi bilan uslubiy bo‘yoqdorligi o‘zaro bog‘liq. Ko‘p ma‘noli iboralarning asosiy qismi uslubiy o‘xshashligi bilan xarakterlanadi. Polisemantik iboralarda to‘g‘ri va aniq bir

ma'no bo'lmaydi, ular doimo ko'chma ma'noda ishlatiladi, ya'ni, polisemantik iboralarning barcha ma'nolari, ularning ichki obrazi bilan bevosita aloqadordir ¹³. Shoir ijodida qo'llanilgan iboralarda ham ichki obraz muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida to'xtalib o'tganlarimiz shoir Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarning shakl va ma'noviy turlarini shoir "Saylanma"sidan olingan misollar orqali izohlab berishga va tahlil qilishga harakat qildik. Shoir ijodiy mahoratining betakrorligi, ijodining rang-barangligi keltirgan misollarimizdan ham yaqqol ko'rinib turibdi. Shoir o'zbek tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangani holda, iboralarning nozik ma'noviy jihatlarini ham ilg'ay olgan. Shoir o'z she'rlarida anchagina uchraydigan, insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlarini ifodalab berishda iboralarning shakl va ma'no turlaridan keraklicha foydalangan. Muhammad Yusufning deyarli barcha she'rlarida iboralarning bir qator ko'rinishlarini uchratish mumkin. She'rlarida umumtil iboralaridan foydalanish orqali o'zining qalb kechinmalarini, insonlar hayotining turli qirralarini, o'y-xayollari, g'am-u tashvishlarini jonli tarzda tasvirlab berishga erishdi. Shoir o'zining betakror ijodi bilan o'zbek tilimiz rivojiga, uning yuksalib ravnaq topishiga, milliy an'analarimiz, milliy qadriyatlarimizning insonlar ong-u shuuriga singishida beqiyos hissa qo'shdi. Uning she'rlari butun O'zbekiston kitobsevarlari tomonidan sevib o'qiladi, buyuk san'atkorlarimiz tomonidan baralla kuylanadi. Shoirning o'chmas yodi va takrorlanmas ijodi hech qachon tarix sahifalaridan yo'qolib ketmaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan shoir tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlarda ham uning ijodiy ishlarini yangi nashrlarda chop etish, boshqa tillarga tarjima qilish, kitoblarini bir necha nusxalarda nashr ettirish kabilar, badiiy kechalarini o'tkazib berish, joylarda shoir ijodi bilab bog'liq turli tadbirlar va uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu ham Muhammad Yusuf ijodiga bo'lgan yuksak hurmat va ehtirom namunasidir.

¹³Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998, -Б.181.

II BOB.

MUHAMMAD YUSUF POEZIYASIDA FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY VAZIFALARI

Muhammad Yusuf she'riyatining ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalardan biri unda yuksak mahorat bilan qo'llangan barqaror birlik (maqol va ibora)lardir.

She'riy nutqning obrazlilik barqaror xarakterga ega bo'ladi. Istiora, epitet, o'xshatish, mubolag'a, kesatiq, ibora kabi his-tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi. Bunda mavzuning ta'sirchanligini ta'minlash uchun boy lisoniy imkoniyatlardan unumli foydalanish talab etiladi. Ushbu jihat Muhammad Yusuf she'riyatida muhim ko'rinishda namoyon bo'lgan. M.Yusuf o'z she'rlarida qaysi mavzuda qalam tebratmasin, she'rni milliy tilimizga xos nozik qochirimlar, iboralar, hikmatli so'zlar va atamalar bilan boyitishga alohida ahamiyat qaratib, ta'sirchan yozma nutqni vujudga keltirgan. Bilamizki, til va ma'naviyat mushratakligi iboralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular xalq turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, e'tiqodi, maishiy hayoti, dunyoqarashini, ayrim kishilarning hatti-harakatini va fe'l-atvorini boshqa birliklarga nisbatan to'la va yorqin, turfa bo'yoqlarda aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Shu bois ularning boshqa tillardan muqobilini qidirish ko'pincha samarasiz yakunlanadi. Shoir ijodida so'zlashuv, ilmiy, badiiy uslubga xos iboralar ham erkin qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda so'zlashuv uslubiga xos frazeologik birliklarni keng qamrovda B.O'rinboyev¹⁴, uslubiy xususiyatlarini B.Yo'ldoshev tomonidan qilingan tadqiqotlarda keng uchrashini ta'kidlab o'tamiz¹⁵.

2.1 Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishi.

Muhammad Yusuf yetuk so'z san'atkori sifatida frazeologizmlardan unumli foydalanib, voqelikni real ifodalash va o'quvchiga estetik ta'sir etish vazifalarini uyg'un tarzda amalga oshirishga erishgan. Ularning ba'zilari haqida to'xtalib

¹⁴ Ўринбоев Б. Сўзлашув нутки. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 16-18; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутки. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 42-45.

¹⁵ Ўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б. 88-96.

o'tamiz. Shoir ijodida qo'llangan iboralarda ma'no ko'chishining turli jihatlarini uchratish mumkin. Masalan,

*Bu dard yetar sizga o'la-o'lguncha,
Bardoshingiz tog'dek bo'lmasa buncha?
Nolang haqqa yetib qaytib kelguncha,
Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa (247-b).*

Misrasida “*bardoshi tog'dek*” iborasi *chidamli, matonatli* ma'nosida qo'llanilib, shakl o'xshashligini ifodalagan. Bu o'zbek tilida metoforik yo'l bilan ma'no ko'chishi deb izohlanadi. Shoir ijodida bunday iboralarning ko'p o'rinlarda ishlatilganini ko'rish mumkin.

“*Singlimga maktub*” nomli she'rida esa shoir lirik qahramon holatini ifodalashda “*tosh ko'ngil*” iborasidan foydalangan:

*Qachon xat yozgandim senga bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib,
Yoningda yurmayman...
Kechir meni, singlim,
Kechir meni, singlim. (39-b)*

Bu misrada “*tosh ko'ngil*” iborasini shoir yuqorida ta'kidlaganimizdek, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda qo'llagan. Shu bilan Muhammad Yusufga xos yana bir xususiyatni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Shoir o'z she'rlarida iboralarni qo'llar ekan, ularning shaklini o'zgartirgan holda keltirganini ko'ramiz:

*Dardin tilga ko'chirmas shoir,
Shoir dardin yutishi mumkin.
Hech kimni zor kuttirmas shoir,
Shoir yuz yil kutishi mumkin (239-b).*

Parchada “*dardini ichiga yutmoq*” iborasi *dardini yutmoq* shaklida qisqartirilgan. Bu ibora harakat o'xshashligini ifodalab, metofarik usulda ma'no ko'chishiga uchragan.

Shoir ijodida achinish, befarqlik, g'azab, nafrat, hayrat kabi munosabatlarni ifodalashda ham iboralarning nozik ma'no ottenkalaridan mohirona foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "*Hayron bo'lmam turna kishnasa*" deb boshlanuvchi she'rida yuqorida keltirilgan munosabatlarni quyidagi iboralar bilan ifodalagan. "*Ko'zi pishmoq*", "*Ko'ngli uvishmoq*", "*Bag'rini tilmoq*", "*Orzu qilmoq*" kabilar.

Senga qarab ko'zim pishmoqda,

Seni o'ylab ko'ngil uvishmoqda.

Kelin orzu qilib, bag'rimni tilib

To'shak qavir qari onam qishloqda...

Aldab nima qilasan? (91-b).

Salbiy munosabat ifodalash salbiylik-ijobiylik bo'yog'ini iboralar orqali ham ifodash mumkin. "*Bag'ri tosh*" bu ibora quyidagi misrada:

Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,

Sochingdagi oqlar bag'ri toshligim,

Bir shirin so'z aytmay, bitta gul tutmay,

Sen gulni so'ldirdi mening yoshligim (261-b)

Lirik qahramonning achchiq haqiqatni yillar o'tgandan so'ng tan olganligini ifodalagan va muallif tomonidan metoforik usulda ma'no ko'chishi hosil qilingan.

Shoir asarlarida iboralarni umuman, barqaror birliklarni qo'llar ekan ularni aynan keltirish yoki shaklini o'zgartirgan holda qo'llaydi. Masalan, "*Yodingga tushsam goh, yo'qlab tursang bas*", "*Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am*", "*Qo'lim qisqa, sevgim, bo'ylarim uzun*", "*Ey ko'nglimga ko'rk bo'lmayin ketgan g'uncha*", "*Turkman qizni maqtab baloga qoldim*", "*Yuragim og'rir go'yo kimdir uni tig' bilan tilar*" kabi. Misollarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, iboralar o'z va shaklan o'zgargan holatda qo'llanilib, turli xil ma'no ko'chishlarini hosil qilgan.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, shoir mohir so'z san'atkori sifatida ona tili imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiluvchi frazeologik birliklarning informativ funksiyasi bilan bir qatorda ekspressiv imkoniyatini ham zukkolik bilan idrok etib, voqelikka turlicha munosabatlarni ifodalash uchun foydalanadi. Shuningdek, o'zi

ham tilda mavjud soʻzlar birikuvlariga obrazli ibora tusini beradiki, bu uning ona tilimiz inja imkoniyatlarini ishga solish qudratiga egaligidan dalolat beradi.

Muhammad Yusufning oʻziga xos, boshqalardan ajralib turadigan pozitsiyasi mavjud. Uning ijod usulida “Men” – shaxs pozitsiyasi koʻzga tashlanadi. Asarlarida “men” shaxs sifatida bayon etilgan, shaxs insonlarga murojaat qilinishi benihoyat koʻp. Muhammad Yusuf oʻziga xos uslubga ega yetuk shoir, qalami oʻtkir ijodkordir. Muhammad Yusufning ijodiy mahorati sheʼriyatida yaqqol aks etadi. Mohir shoirning asar, doston, ijod namunalarida umumtil iboralariga murojaat qilish koʻp uchraydi. Chunki, tahlil jarayonida iboralar ijodkorning dunyoning, ijtimoiy hayotning, jamiyatning nuqsonlari va yutuqlarini “koʻra olish” qobiliyatini ochib bergan. Zabardast qalamkash shoir Muhammad Yusuf sheʼrlari jozibali ruhda yozilganligini koʻrish mumkin. Muhammad Yusuf bugungi kun badiiy adabiyot, sheʼriyatning yorqin vakili, har bir insonga oʻrnak boʻlarli, barchani maʼrifatga chorlovchi badiiy – tahliliy ijod namunalari bilan zamonni aks ettirib turadi. Kimki, bugungi kunda zabardast qadam tashlashni, oʻzini anglashni istasa, shoirning betakror ijod namunalaridan oʻqib-oʻrganib, mushohada yuritib, oʻrnak olsin. Shunda oʻzining fikriy darajasini, chin insoniy qiymatini belgilay oladi.

Sheʼrlarning mohiyatini yoritishda, ochib berishda – iboralardan foydalanish birlamchi vazifani bajaradi. Shunda mavzu koʻlami batafsil oʻz ifodasini topadi. Shuningdek, shoir voqealarni reallistik xolis yondashuv asosida yaratadi. Bu muallifning “*Dunyo*”, “*Sevgi bu*”, “*Qizgʻaldoq*”, “*Muhabbat*”, “*Kelinchak*”, “*Qushlar ham yigʻlar*”, “*Goʻzallar*” kabi sheʼrlarida uchraydi. Muallifning barcha sheʼrlari yashirin zanjir ila bir-biriga bogʻlanib, zanjir halqalari singari bir-birini mazmun jihatidan mustahkamlab, toʻldirib turadi. “*Yor-yor*”, “*Yolgʻonchi yor*”, “*Kelinchak*” sheʼrlarida biz yuqoridagi holatni kuzatamiz.

Ijodkor badiiy tafakkuri Olloh inʼom etgan ilohiy moʻjiza – isteʼdod nuriga yoʻgʻrilgan boʻlsa, qanchadan – qancha milliy boyliklarni bunyod etadi. Aynan ijodkor badiiy tafakkurining ilohiy va dunyoviy mazmunlari uygʻunligidan yuzaga keluvchi oʻziga xos uslubda ham shu ikki jihat koʻzga tashlanadi: isteʼdod –

mahoratni yuzaga chiqaruvchi omil bo'lsa, uslub – ijodkor tafakkurining badiiy til orqali dunyoviy ma'no va mazmun kasb etishidir.

Har bir shoir neniki ijod qilmasin, unda o'z uslubini aks ettiradi. Muhammad Yusufning har bir so'zidan samimiyat aks etib turadi. U o'zining ijod namunalarida haqqoniylikni ustun qo'yadi. Ijodida zo'rma-zo'rakay so'zlar uchramaydi. Har qanday yoshdagi kitobxon ushbu ijod mahsulidan "lazzatlanishi, saboq olishi" tabiiy. Voqealarni imkon boricha asl holda talqin etishga intiladi. Shoirning birgina satri, yozuvchining birgina jumlasini uning fikriy "asliy" tarjimoniga aylanadi. Beixtiyor "voh" degan holat-u, vaziyatlarimiz ham bo'lib turadi. Umuman olganda, she'riyat badiiy adabiyotning "nuroniy" yo'l boshchisidir.

Shoir insonlarga o'zining fikrini uqtirishga harakat qilmaydi. Aksincha, turli voqea – hikoyalar misolida xulosa chiqarishni kitobxon ixtiyoriga beradi.

Jamiyat hayotida she'riyat o'ziga xos o'ringa ega, jumladan shoir ijodi ham. Biz ushbu ishda she'rlar va ularda badiiy tasvir vositalarining qo'llanishiga to'xtalamiz. Bunday matnlarda turli badiiy tasvir vositalari, ayniqsa, ko'p uchraydi. Ma'lum bir ijodkorning mahoratini belgilashda u qo'llagan badiiy tasvir vositalari badiiy matnlarda qanchalik katta rol o'ynasa ular yaratgan badiiy matnlarda ham shu darajada muhim rol o'ynaydi. Chunki muallif ma'lum bir lirik qahramon holatini qalamga olar ekan, bu asar qahramonlarining turli jihatlarini tahlil qilishda, asarlarning mazmun-mohiyatini belgilashda va boshqa o'rinlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Muhammad Yusufning "Dunyo" she'rida shoir, asosan, sifatdoshlardan, metaforalardan va boshqa badiiy tasvir vositalaridan foydalanagan. Xususan, bir qator iboralar qatnashgan birikmalar: *"miyig'ida kulmoq, tetapoya qilmoq, yod etmoq, dilini obod etmoq, ruhlarini shod etmoq, dardlarini aritmoq"* keltirilgan.

Ma'lumki, sinekdoxa deb butun-bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkinligi aytilgan. *Daraxtlar sarg'aydi, olma gulladi, qo'limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning*

qo'li baland keldi kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Muhammad Yusuf qo'llagan quyidagi sinekdoxalar ham shunday vazifa bajaradi. Masalan,

*Kundayin yillarim o'tar tizilib,
Bir boshga bir o'lim turar suzilib,
Bo'ynim egilguncha ketsin uzilib,
Oriyat yo'lida ko'ksi qalqonman.*

Parchadagi “*bir boshga bir o'lim*” iborasi orqali qism orqali butunning ifodalanishi, ya'ni, sinekdoxa hodisasi yuzaga kelgan. Shu bilan birga o'sha lirik qahramonining umumiy jihatlariga ishora qiladi.

Bundan tashqari, shoir boshqa she'rlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, metaforalarni ham ko'ramiz. Hammamizga ma'lumki, narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Shulardan xususiy-muallif metaforalari yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni, borliqning subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. Shoir she'rlarida: “*g'ayrati qo'zimoq, bag'ri-dilini kuydirmoq, baxti qora, bag'ri qon, bag'ri tosh*” kabi metaforalarini uchratamiz.

Shoir ijodida ma'no ko'chishining yana bir turi bo'lgan metonimiyalarni ham kuzatamiz. Bunda dastlab metonimiya haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki

xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi. Masalan: *...yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo'ladirgan ko'ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyni yaxshilab o'qish kerak.* (A.Qodiriy). Ushbu gapda muallif va uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib, «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki; *Saroy tinch uyquda, tun yarim* (A.Qodiriy). Bu misolda "saroy" so'zi orqali «saroydagi odamlar» ma'nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz: *Xemengueyni o'qish – Aka Xemenguey ham badimga urib ketdi, – dedi buxorolik shoir. – Endi o'qiyapman Jabron Xali, Folkner, Frishni. O'sha kuni uyga keldim. Yana kezib chiqdim o'zim sevgan Ernst olamlarini. To'g'ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto Xemenguey ham. Agar o'z erking ko'rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa. Tuyulsa omonat, liqildoq. Muomalaga o'rgatar Xemenguey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan.* (I.G'afurov).

Shoir she'rlarini o'qish davomida yuqorida keltirgan ijodkorlarimiz kabi uning ijodida ham anchagina metonimiyalarni uchratamiz. Shoir "Osmon cho'kib" she'rida metonimiyadan foydalanadi. Bu esa o'quvchi ongida xuddi jonli manzarani gavdalantiradi ya'ni kitobxon bevosita shoirning o'zi bilan suxbatlashayotganday, uni fikr, tahlillarini tinglayotganday bo'ladi.

Muhammad Yusuf she'riyatining mavzu jihatidan turlari. Har bir ijodkor-shoirning nimani yoritishga ko'ra mavzu doirasi turlicha bo'ladi. Masalan: ma'naviy – ma'rifiy mavzu, ta'lim –tarbiyaviy mavzu, hayotdagi maishiy voqea-hodisalar haqidagi mavzu, ustoz-pirlar xotirasiga bag'ishlangan mavzu, san'at olami haqidagi mavzu, ijtimoiy-siyosiy mavzu, qalam ahli haqidagi mavzu, tarixiy voqealar to'g'risidagi mavzu, adabiy asarlar haqida mushohali mavzu, pand-nasihat haqidagi mavzu, moddiy-ma'naviy meroslarni asrab-avaylash haqidagi mavzu, so'z madaniyati va ma'no mohiyati to'g'risidagi mavzularga ajratiladi.

Mavzuning serqirraligi ijodkorning mahoratidan dalolat beradi. Mavzu-mazmun ko‘lami keng qamrovli bo‘lib, ularda xalqning ijtimoiy hayoti, omma fikri, millat dardi, g‘am-g‘ussalari, shod-xurram kunlari, insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, kattani xurmat, kichikni izzati qilish, o‘zini tutish, o‘zini tiya bilish, qayerda qanday nutqiy muomalada bo‘lish kabi jamiyatning turli jabhalarining ichki jihatlarga yoritib beriladi. Ijodkor yozayotgan ijod mahsulining mavzu-mazmuni, uslubi, tili, adabiy elementlarni qo‘llashiga ko‘ra ijodning turli janrlari qo‘llaniladi.

Shoir Muhammad Yusufing barcha mavzularda unumli ijod qilgan hamda she‘rlarida mavzular uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi.

Muhammad Yusuf she‘riyatining tili yuqorida ta’kidlaganimizdek, sodda, ravon, barcha yoshdagi insonlar uchun tushunarli, qisqa va lo‘nda, so‘z, maqol va iboralardan o‘rinli foydalanilgan. Ustoz Muhammad Yusuf ijodda nutqiy munosabatning erkinligi (spotan), o‘ziga xosligi, aniq, ravshan, obrazlilik kabi xususiyatlar mujassam. Ijodkorning tilining aniq va soddaligini o‘quvchiga hayolida ma’lum bir manzarani hosil qiladi. Muallif ijod qilayotganda imkon qadar tushunarli, aniq va lo‘nda bo‘lishiga e’tibor bergan.

2.2 Muhammad Yusuf poeziyasida frazemalarning uzual va okkazional uslubi vazifalari.

Shoir Muhammad Yusuf poeziyasida iboralardan foydalanish mahorati xususida ustozimiz prof. B.Yo‘ldoshev o‘zining ilmiy maqolalari orqali ko‘p ishlarni amalga oshirgan. Xususan, uning “Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku” (Muhammad Yusuf poeziyasida frazeologizmlardan foydalanish san‘ati)¹⁶ deb nomlangan maqolasida umumxalq tilida qo‘llaniladigan iboralarning ba‘zilari qanday bo‘lsa, xuddi shunday o‘zgarishsiz shaklda ham, ba‘zan esa ayrim o‘zgarishlarga uchragan holda ham qo‘llanilishi haqida aytib, quyidagi iboralar xususida o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi: “ko‘ziga yorug‘ jahon tor bo‘lmoq”, “boshi egilmaslik”, “jon uzilmoq”, “jon bermoq”, “manglayi qora”, “baxti qora”, “paymonasi to‘lmoq”, “qo‘li yetmoq”, “peshonasiga bitmoq”, “ko‘ngli qolmoq”,

¹⁶ Йўлдошев Б. “Юрагимни тўкиб қўйдинг-ку” // “Зарафшон” газетаси, 2014, 14-сон., 3-бет.

“etagini qoqib ketmoq”, “afsona bo‘lmoq”, “armon bo‘lmoq”, “qon yig‘lamoq”, “boshini yerga egmoq”, “qomatini bukib qo‘ymoq”, “ko‘nglini kuydirmoq”, “yuragini to‘kib qo‘ymoq”, “ruhini chok-chokidan so‘kib qo‘ymoq”. Bu iboralar shoir she‘riyatining ifodaviyligini, ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shoir Muhammad Yusuf she‘riyatida iboralar ham muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi. Shoir o‘z she‘rlarida faqat tarkibi o‘zgarmagan iboralarni qo‘llash bilan cheklanib qolmasdan, balki badiiy matn talabi bilan umumtil iboralariga turli xil semantik va struktural o‘zgarishlar kiritishi uning frazeologizmlarni qo‘llash sohasida hassos shoir ekanligidan dalolat beradi. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, Shoir Muhammad Yusuf ijodining lingvopoetik tabiati bo‘yicha ma‘lum darajada tadqiqot ishlari olib borilgan. Masalan, G.Muhammadjonova o‘z nomzodlik ishida Muhammad Yusuf she‘rlarida omonim, sinonim, antonim kabi leksik vositalar hamda metofora, metonimiya kabi tasviriy vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini ma‘lum darajada o‘rgangan¹⁷. D.Shadiyeva esa Muhammad Yusuf she‘riyatining lingvopoetikasini maxsus tadqiq etgan¹⁸. M. Davronova “Muhammad Yusufning poetik mahorati” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi. Bu ishning 3-bobi “Muhammad Yusuf she‘riyatida til va poetik ifoda imkoniyatlari” deb nomlanadi. Bu qismda shoir she‘riyatining leksik boyligi, uning maqollardan foydalanish mahorati haqida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan¹⁹.

Ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarida shoir Muhammad Yusuf she‘riyatida frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari maxsus o‘rganish obyekti bo‘lgan emas. Faqatgina D. Shadiyeva ishining 1-bobidagi kichik bir qismi xuddi shu mavzuga bag‘ishlanganligini aytib o‘tish lozim. Muhammad Yusufning tilimizda mavjud iboralardan kerakli o‘rinlarda foydalanib, o‘z she‘riyatini

¹⁷ Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. номзоди...автореф. –Т, 2004.-Б.7-21.

¹⁸Шадиева Д.Ш. Мухаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси. Филол.фан. номзоди...автореф. –Т , 2007. - Б. 7-22.

¹⁹Давронова М.И. Мухаммад Юсуфнинг поэтик маҳорати. Филол.фан. номзоди...автореф. - Тошкент , 2008.- Б.14-19.

boyitganligi nafaqat o'z ijodi ifodaviyligini, sermazmunligini oshirishga xizmat qiladi, balki o'zbek tilining naqadar boy va takrorlanmas til ekanligini ham yoritib beradi. Shoirning deyarli barcha she'rlarida umumtil iboralarining qo'llanilganligi, bu esa she'rga o'zgacha mazmun bag'ishlaganligi uning ijodining betakrorligini ko'rsatib turadi.

Har qanday shoir yoki yozuvchi uchun asarlarida so'z va iboralardan foydalanish, ularning fikrlarini, ichki kechinmalarini, yashash tarzi, yashash shaklini yoritib berishga vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir so'z yoki ibora badiiy asardagi g'oyaviy-estetik maqsadga ko'ra muayyan ma'no kasb etadi, zamiridagi mazmun orqali o'zining yangi-yangi ma'no qirralarini namoyon qiladi. Xususan, shoir Muhammad Yusufning ko'plab g'oyaviy-badiiy qiymati yuksak she'rlarida so'z yoki iboralar – bamisoli yonib turgan olovdek, satrlari esa lovullagan cho'g'dek uchqunlab turadi. Shu boisdan ham sevimli shoirimizning she'rlarini shunchaki loqaydlik bilan ko'r-ko'rona o'qib bo'lmaydi. Uning she'rlaridagi har bir manzara bizning hayotimizda ham xuddi shunday aks etgani, turmush tarzimizdagi mavjud voqea-hodisalar o'tkir qalam bilan mohir tasvirlangani qalbimizga qandaydir iliqlik, harorat, shuurimizga esa nur, yorug'lik olib kiradi. Shoir she'rlarida qo'llanilgan so'z va iboralar orqali esa she'r mazmun-mohiyatini qay darajada yoritib berganligining guvohi bo'lamiz. Ularni to'g'ri, she'r mazmuniga mos holda qo'llay olganligi esa shoirning ijodiy mahoratiga bog'liq. Bunday estetik tamoyillarga amal qilgan Muhammad Yusuf asarlarida iboralarni qo'llash orqali she'riyatining bo'yoqdorligini, ta'sirchanligini oshirishga harakat qilgan.

Endi biz shoir Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan iboralarning uzual va okkazional uslubiy vazifalariga alohida to'xtalib o'tamiz. Iboralarda keng tarqalgan bunday funksiyalar umumiy va doimiy xarakterga ega bo'lib, poetik matnlarda ham nasriy matnlarda ham ko'proq reallashadi, ular iboralarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita aloqadordir. Uslubiy vazifalarning ayrimlari tabiiy bo'lib, frazeologik birlikning tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual xarakterga ega bo'lib, u yoki bu so'z san'atkorining estetik maqsadi, xohish-

irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi novatorligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Iboralarning uzual uslubiy vazifalari qatoriga nominativ vazifasi, nutqni ixchamlashtirish vazifasi, obrazli ifodalash vazifasi, emotsional vazifasi, ekspressiv vazifalarini kiritishimiz mumkin.

1. *Iboralarning nominativ vazifasi.*

Bunga to‘xtalishdan oldin prof. Sh.Rahmatullayevning iboralarni ma‘no turlari jihatidan *a)* nomlovchi iboralar va *b)* ifodalovchi iboralarga ajratib tasnif qilganini, shulardan nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (*do‘ppining tagidek*), harakat-holatning nomi (*og‘iz ko‘pirtirmoq*), harakatga xos bo‘lgan belgining nomi (*eshikdan kelmay teshikdan*)ni bildiruvchi frazemalarni ajratadi²⁰. Bu tasnifdan anglash mumkinki, iboralarning ma‘lum qismi matnlarda nominativ vazifa bajaradi. Masalan, “*burnini yerga ishqamoq*” iborasi harakat “*qattiq jazolamoq, adovini berib qo‘ymoq*” ma‘nosini ifodalashga xizmat qiladi:

Ayol zoti agar unga ishqing tushganini sezib qolsa, burningni yerga ishqaydi. Qaysi bobokalonim aytgan edi bu gapni? (106-b).

Shoirning she‘rlarida qo‘llangan boshqa iboralarda ham nominativ vazifani ifodalashga xizmat qilganlarini uchratish mumkin. “*Jon bermoq*” iborasi “*o‘lmoq, so‘nggi bora nafas olmoq*” (O‘TIFL, b-94) ma‘nosini ifodalab nominativ vazifa bajarishga xizmat qilgan:

O‘g‘lim, jigargo‘sham, aytgin-chi nahot,

Achinmaydi joning onang holiga?

Meni to‘shaklarga mixlab qo‘ydi bod,

Kelib bir ko‘tarib chiqqin hovliga.

Qo‘lingda jon berib o‘lsam, mayliga... (259-b).

Shunday qilib, she‘riy matnda yoki nasriy matnda qo‘llanilgan iboralarning barchasi u yoki bu predmet, voqea-hodisani, xatti-xarakatni nomlar va so‘z-atama sifatida vazifa bajararar ekan.

2. *Iboralarning nutqni ixchamlashtirish vazifasi.*

²⁰ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. - Тошкент, 1970.- Б. 10-11

Iboralar ma'noni ixchamlashtirish xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday iboralarni shoir Muhammad Yusuf she'riyatida qo'llangan iboralarga doir olib borgan kuzatishlarimiz ham to'la tasdiqlaydi. Iboralar, ayniqsa, gap shakliga ega bo'lgan nutqni ixchamlashtirish xususiyatiga ega. Masalan, shoir ijodida qo'llanilgan "bo'yga yetdi" iborasi "turmushga beradigan vaqti kelibdi", yoki "bir oilani gullatadigan qiz bo'lib qolibdi" deyishdan ko'ra ancha ixcham va qulay:

*Zebi dedim, Zebona,
Sevganim sen yagona.
Bolalikda sog' qizlar,
Bo'yga yetgach - devona!...(17-b)*

Yana bir misol, "taqdiriga yozgani shu ekan, taqdirida borini ko'radi" degandan ko'ra "peshonasiga bitilgan" iborasi bilan ifodalash ixchamroq:

*Osmonlarga qo'li yetgan davronim,
Top bir chora, bo'lmagil bezabonim.
Peshonamga bitgan yolg'iz ummonim,
Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon!(120-b).*

Bundan tashqari adabiy tilda "vafot etmoq, o'lmoq, narigi dunyoga ravona bo'lmoq" ma'nolarini ixcham tarzda ifodalash uchun "jon bermoq", "joni uzilmoq", "paymonasi to'lmoq" iboralari xizmat qiladi. Shoir Muhammad Yusuf poeziyasida ham bu iboralar nutqni ixchamlashtirish vazifasini bajargan:

*O'g'lim, jigargo'sham, aytgin-chi nahot,
Achinmaydi joning onang holiga?
Meni to'shaklarga mixlab qo'ydi bod,
Kelib bir ko'tarib chiqqin hovliga.
Qo'lingda jon berib o'lsam, mayliga...(259-b).*

1. Iboralarning ma'noni obrazli ifodalash vazifasi.

Ko'pgina iboralar aniq, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs-predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Ayniqsa, badiiy nutqda

yoki she'riyatda bu holatni uchratish mumkin. Masalan, shoir ijodida qo'llanilgan “jon baxsh etmoq” iborasi “har qanday holatda ham jonini bermoq, shu yo'lda jonini baxshida qilmoq” ma'nolarini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi:

*Kindik qoni tomgan tuproq unga- shon,
Kerak bo'lsa, beso'z baxsh etar u jon,
Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek (178-b).*

Iboralar so'zlashuv nutqida, shuningdek, badiiy, qisman publitsistik nutqda fikrni obrazli ifodalash vazifasini bajaradi. Bunday iboralar badiiy va publitsistik nutqda metoforalar, o'xshatishlar bilan bir qatorda obrazlilik hosil qilishga bo'ysundiriladi. Obrazli ifodalash vazifasi ichki ta'sirchan shaklga – obrazli tasavvurga ega bo'lgan iboralar uchun ko'proq xarakterlidir. Ba'zan iboralar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi²¹:

Ko'rpangga qarab oyoq uzat, dedim o'zimga o'zim bir kuni. Keyin o'ylanib qoldim. Kim aytgan ekan bu gapni birinchi marta (101-b).

Demak, bu misolda “ko'rpangga qarab oyoq uzat” iborasi “imkoniyatini hisobga olib ish tutish“(O'TIFL,b-175) ma'nosini obrazli ifodalab beryapti. Shoir Muhammad Yusuf ijodida bunday iboralar juda ko'p o'rinlarda obrazli ma'no ifodalash vazifasini bajargan. Shoirning “Qayda bor”nomli she'rida “qalbga taskin izlamoq”, “yuragi sel bo'lmoq” iboralari keltirilgan:

*Qalbga taskin izlasang –
Turg'un cholni so'ragin.
“Tanovar”ni tinglasang,
Sel bo'ladi yuraging.
Navolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?.. (163-b).*

²¹ Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. –Б. 19.

Misradagi “*Qalbgaga taskin izlamoq*” iborasi “*yupatmoq, tasalli bermoq*” ma’nosini obrazli ifodalagan bo’lsa, “*yuragi sel bo’lmoq*” iborasi esa “*chin yurakdan yig’lamoq, bo’sharmoq*” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan.

3. *Iboralarning baholash vazifasi.*

Iboralarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish vazifasi ham xarakterlidir. Masalan, shoirning “*Ko’hna quduq*” dostonidan olingan quyidagi parchada “*baxti qora*”, “*manglayi qora*” iboralari bir satrda qo’llanilib, “*baxti qaro, baxtsiz, manglayiga shunday taqdir bitilganligini*” baholash vazifasini bajarishga xizmat qilgan:

Orol dengiz, Orol bechora dengiz,

Zilol dengiz uvol-ovvora dengiz,

Baxti qora, manglayi qora dengiz,

Ko’z o’ngimda, ko’z o’ngimda berar jon... (120-b).

Bundan tashqari shoir ijodida “*ko’ngli qolmoq*” iborasi:

Yoqub cholning raysabedan ko’ngli qoldi,

Yoqub cholning boshliq - bezdan ko’ngli qoldi.

Mendan, sizdan- hammamizdan ko’ngli qoldi,

Mashinasin boshqa olg’ir kimsa oldi (159-b),

ushbu misrada uch satrda ham qo’llanilib, “*avvalgi yaxshi munosabat o’rniga xush ko’rmaslik hissiyotining uyg’onishi*”(O’TIFL,b-172) ma’nosini ifodalab, cholning ichki kechinmalarini, o’y-hayollarini, tuyg’ularini baholash vazifasini bajargan. Bu misollardan ko’rinib turibdiki, Muhammad Yusuf poeziyasida qo’llanilgan iboralarning aksariyati baholash vazifasini ham bajarganligining guvohi bo’lamiz. Umuman olganda, baho vazifasini bajargan iboralar badiiy matnlarda, jumladan, Muhammad Yusuf she’riyatida ham faol xarakterlovchi vositalardan biri sanaladi.

4. *Iboralarning emotsional vazifasi.*

O’zbek tili frazeologik sistemasida iboralarning katta bir guruhi faqat asosiy ma’noni ifodalab qolmasdan, balki so’zlovchining shodligi, g’azabi, nafrati,

o'kinchi, qo'rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. Ko'pgina iboralar uchun ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik ajralmas xususiyat sanaladi. Shoirning "Osmonning oxiri" dostonida keltirilgan "onasi o'pmagan" iborasi "yosh, bo'yi yetgan odobli, esli-xushli" ma'nosini emotsional tarzda ifodalab kelgan:

*Qo'y o'sha sevgi-pevgingni, ajrashinglar, deydi boyvuchcha ona qiziga.
Odam dunyoga bir marta keladi! Seni bir haftada onasi o'pmaganiga uylantirib
qo'yaman-e, deydi takabbur ota o'g'liga: Ajrash. Odam dunyoga bir marta
keladi! (102-b).*

Shoir ijodida "ko'nglini tog' etmoq", "ko'ngil xushlamoq", kabi iboralar ham emotsionallikni ta'minlab, she'rning ko'tarinkiligini va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan:

*Saylab yurt ajratmoq fe'limga yiroq,
Buxor minorlari ko'nglim etar tog',
Menga Samarqand ham azizdir, biroq,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men (234-b).*

*Oshiqclarim – oshiqdek,
Mayli, ko'ngil xushlashsin,
Ikki oshiq istasa,
Shamol bilan mushtlashsin (62-b).*

Emotsional vazifa bajaruvchi iboralar orasida undovlar alohida o'rin tutadi, chunki emotsionallik ular mazmunining asosini tashkil etadi. Bir xil undov iboralar zavqlanish, xursandchilik, minnatdorchilik, shodlanish, tashakkur kabi ma'nolarni ifodalasa, boshqalari e'tiroz, norozilik, nafrat, g'azab, achinish, afsuslanish, kinoya, tanbeh kabi emotsional ma'nolarni ifodalashga bo'ysundirilgan bo'ladi: "ko'ngling chog' bo'lsin" (49-b), "quvonch arimasin" (142-b).

*Mendan kechib ketganing,
Mayli, joning sog' bo'lsin.
Mening ko'nglim cho'ksa ham,
Sening ko'ngling chog' bo'lsin.*

Mayli, men-ku, qon dilim,

Baxtlimisan, sevgilim?!.. (49-b).

Farishtalar fayzi yog‘ar yuzlaringdan

Arimasin quvonch endi, O‘zbekmomo.

Yursang oftob ergashadi izlaringdan,

Oftob bo‘lib nur soch endi, O‘zbekmomo! (142-b).

Iboralar badiiy matnni boyitibgina qolmay, balki unga yangidan yangi ma‘nolar qo‘shib, mazmunining teranlashishiga, mohiyatining yanada chuqur yoritilishiga xizmat qilar ekan. Shuning uchun ham katta ota va katta onalarimiz har bir fikrini yetkazish uchun iboralardan foydalanar ekanda. Shuning uchun ham ularning gaplari hech ham hayolimizdan ko‘tarilmas ekanda, ha, iboralar xalq og‘zaki ijodi orqali sayqallanib, har xil o‘zgarishlarga uchrab shu bugungi kunimizgacha o‘z qiymatini yo‘qotmay kelmoqda. O‘zbek xalqining sevimli shoiriga aylanib ulgurgan, she‘rlari allaqachon qo‘shiq bo‘lib o‘z muxlislari ko‘nglidan joy olib bo‘lgan iste‘dodli shoir Muhammad Yusuf ijodida ham iboralarning o‘rni beqiyos ekanligini keltirilayotgan misollardan ham ko‘rib boryapmiz.

5. Iboralarning ekspressiv vazifasi.

Iboralarning ekspressiv vazifasiga to‘xtalishdan oldin, “ekspressiv” so‘zining ma‘nosini bilib olishimiz zarur. “Ekspressiv” so‘zi lotincha bo‘lib, nutqning ta‘sirchanlik xususiyatini ifodalaydi²². Bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi. Masalan, iboralar tarkibidagi fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlar ekspressivlik darjasining kuchayishiga olib keladi. Bunga shoir ijodida keltirilgan “*bag‘ri qon- yurak-bag‘ri qon*”, “*yuragi ezildi-yuraklari ezildi*” iboralari misol bo‘ladi:

Tushlarimda yig‘larsan goh bag‘ri qon,

Ohlaringdan dud chiqib osmon-osmon,

Menga senu senga men bo‘ldik armon,

Endi seni izlab qaydan toparman...(34-b).

²² Хожиев А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.110.

*Yum-yum yig‘lab yotmasmu ustoz,
Qabrida ham yurak-bag‘ri qon
Shoirlari so‘ylamasa rost,
Olimlari talashsa unvon?..(69-b).*

Muhammad Yusufning she‘riyatida qo‘llanilgan iboralarning barchasi uzual yoki okkazional uslubiy vazifalarni bajarib kelgan. Yuqoridagi misralarda keltirilgan iboralardagi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko‘rsatib berishga vosita bo‘ladi. “*Ko‘ngliga qil sig‘maydi*” iborasi shoirning “*Qushlar ham yig‘lar*” she‘rida keltirilib, “*juda qattiq, ruhan ezilib hech narsa bilan mashg‘ul bo‘lolmaslik, hech narsa yoqmaslik*” (O‘TIFL,b-265) ma‘nosini ifodalab, ekspressiv vazifa bajarishga xizmat qilgan:

*Ona chumchuq aylanibketmas,
Ko‘ngliga qil sig‘masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig‘lasa kerak (45-b).*

Bu iborada ma‘nosidagi ekspressivlikni ta‘minlovchi kuchaytiruvchi sema “*juda*” so‘zi hisoblanadi. Bundan tashqari “*umri xazon bo‘lmoq*” iborasi “*hayotdan juda erta ko‘z yummoq, bevaqt o‘lmoq*” ma‘nosini ifodalab, ekspressivlikni ta‘minlashga xizmat qilgan:

*Alpomishday kelbatidan gapirmay,
O‘n sakkiz yoshga ham kirib yo kirmay.
O‘n gulidan bir guli ham ochilmay,
Umri xazon bo‘libketgan o‘g‘lonlar (54-b).*

Demak, o‘zbek tili frazeologik sistemasidagi uslubiy ma‘noli iboralarning xarakterli belgisi bir vaqtning o‘zida bir necha uzual va okkazional vazifalarni bajara olishida ekan. Biz yuqorida to‘xtalganlarimiz shoir Muhammad Yusuf ijodidagi iboralarning uzual uslubiy vazifalari edi. She‘riyat shunday bir makonki, unga kirgan bulbul sayramasdan turolmaydi, shoir esa qalamini charxlamasdan, go‘zal she‘rlar yozolmasdan turolmaydi. Shunday go‘zal bo‘stonda qisqa bo‘lsa-da sermazmun hayot kechirgan beqiyos va takrorlanmas iqtidor, iste‘dod sohibi shoir

Muhammad Yusuf o‘zining go‘zal va ta‘chirchan she‘rlari orqali o‘zbek she‘riyatida o‘chmas iz qoldirdi. Endi biz shoir ijodida qo‘llanilgan umumtil iboralarning okkazional uslubiy vazifalari haqida alohida to‘xtalib o‘tamiz. Iboralarning bunday vazifalari ularning uzual qo‘llanishidan farqli o‘laroq, faqat muayyan matnlardagina ro‘yobga chiqadi. Kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, shoir Muhammad Yusuf ijodida qo‘llanilgan iboralar asosan quyidagi okkazional uslubiy vazifalarni bajarish uchun xizmat qilgan:

1. Iboralarning satira va yumor hosil qilish vazifasi.

Yumor va satira vositalari orasida iboralar alohida o‘rin tutadi. Bu esa, iboralarning ichki tabiati bilan bog‘liq, chunki ko‘pgina iboralarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma‘no nozikliklari mavjud. Iboralar personaj nutqining uning so‘zlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani ta‘kidlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. “*Boshi egilmaslik*” iborasi “*bo‘ysunmoq, itoat qilmoq, itoatkor bo‘lmoq*” (O‘TIFL.b-56) ma‘nosini bildirib, shoirning ushbu she‘rida qattiq piching, kesatiq ma‘nosini ifodalaganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari bu misrada keltirilgan “*o‘krab yig‘lagandi*”, “*ho‘ngrab yig‘lagandi*” iboralari ham she‘rga kuchli yumoristik ruh baxsh etganligini aytib o‘tish lozim:

O‘krab yig‘lagandi,

Ho‘ngrab yig‘lagandi.

Ko‘ziga tor bo‘lib yorug‘ jahoni,

Erkak boshi bunday egilmagandi,

Balki...uzilgandir o‘shandajoni! (119-b).

Shoir ijodida qo‘llanilgan iboralarning aksariyati o‘tkir kinoya orqali, personajlarning ichki kechinmalarini, o‘y-hayollarini, g‘amu tashvishlarini yoritib berishga xizmat qilgan. Shunday iboralardan yana biri “*ichi yonmoq*” iborasi bo‘lib, bu ibora “*ruhan bezovta bo‘lmoq, dilgir bo‘lmoq*” ma‘nosida ifodalangan. Keltirilgan misrada kuchli kinoyani, zaxarhanda kulguni ifodalab berishga xizmat qilgan:

Evoh, cho‘chqalardan bezorman bu kun,

Alam gulxanida yonmoqda ichim.

Olooh, o'loh, o'zing bir chora qilgin,

Mening cho'chqalarga yetmaydi kuchim (238-b).

“*Ko'ngil qo'ymoq*” iborasi ham shoir she'rlarida o'z aksini topgan bo'lib, “*sevish hissiga yanada erk bermoq*” (O'TIFL, 154) ma'nosini ifodalab, keltirilgan misrada kinoya ma'nosini kuchliroq aks ettirishga xizmat qilgan:

Bildingki, bevafodir,

Ko'ngil qo'ymoq xatodir.

Qo'l o'pib, qo'yingni,

Nimta-nimta etodir,

Bir ish tushsa boshiga,

Boqmay tashlab ketodir (180-b).

Keltirilgan misollarimiz orqali shoir ijodida qo'llanilgan ayrim iboralarning satira va yumor hosil qilish uslubiy vazifasini yoritib berishga harakat qildik.

2. Iboralarning gradatsiya hosil qilish vazifasi.

Frazeologik birliklar matnlar tarkibida ba'zan oddiy so'z bilan yonma-yon kelib, so'z ifodalaydigan ma'noni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Baho elementi bo'lgan iboralar gradatsion vazifani bajarishga ko'proq moslashgan bo'ladi. Ijobiy yoki salbiy baho elementi bo'lgan iboralar yonma-yon holda aniqlovchi vazifasida kelib, bir-birining ekspressiv- baho bo'yog'ini kuchaytiradi. Bir semantik qatorga mansub, lekin semantik yoki uslubiy jihatdan farqlanuvchi ikki ibora yonma-yon qo'llanganda gradatsiya hosil bo'ladi. Shunday iboralar shoir Muhammad Yusuf she'rlarida ham gradatsiya hosil qilishga, ma'noning kuchayishiga xizmat qilgan. Quyidagi misrada “*ko'zi pishmoq*” , “*ko'ngli uvishmoq*”, “*orzu qilmoq*”, “*bag'rini tilmoq*” kabi iboralar yonma-yon kelib, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Senga qarab ko'zim pishmoqda,

Seni o'ylab ko'ngil uvishmoqda.

Kelin orzu qilib, bag'rimni tilib

To'shak qavir qari onam qishloqda...

Aldab nima qilasan? (91-b).

Shoirning “Saylanma”sidan olingan quyidagi misraga e’tibor qaratsak:
O‘g‘lim desam o‘rtanadi vujudim,

Suvni ko‘rsam seskanadi vujudim! ..

Qum ustida qoldi mening umidim,

Endi menga o‘g‘il bo‘ling baliqlar.

Daryo qo‘ygan edim bolam ismini (237-b).

Bu misradagi “vujudi o‘rtanmoq”, “vujudi seskanmoq” iboralari she‘r ma’nosining kuchliroq ifodalanishiga xizmat qilgan. Shoir ijodida har bir ibora qaysidir ma’noda qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Shoir “Saylanma” sida keltirilgan “Go‘zallar” nomli she‘rida “ko‘nglini qoldirmoq”, “ko‘ngil olmoq” iboralari o‘zoro gradatsiya hosil qilib, she‘r mazmunini boyitib kelgan:

Go‘zallarim, go‘zal aldaysiz,

Go‘zal hatto – yolg‘oningiz ham...

Go‘zal – ko‘ngil qoldirmog‘ingiz,

Go‘zal – ko‘ngil olganinigiz ham (45-b).

Biz yuqorida keltirgan iboralarimiz gradatsiya hosil qilish vazifasi bajargan qisman bo‘lsa-da bajarganligini, ular she‘rdagi mazmunning kuchliroq ifodalanishiga, she‘rning joziba kuchi, badiiyligining oshishiga hissa qo‘shganligini aytishimiz mumkin.

3. Iboralarning qofiya hosil qilish vazifasi.

Ma’lumki, she‘riy nutq, nasriy nutqqa nisbatan yuksak, o‘ziga xos g‘oyaviy-ekspressiv imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. She‘riy nutq xarakter, kechinma, poetik leksika, intonatsiya, ritm va musiqiylik komponentlarini o‘z ichiga oladi. She‘riyatda musiqiylik va ritmning vujudga kelishida so‘z va iboralarning refren, qofiya radif sifatida qo‘llanishi ham muhim ahamiyatga egadir. So‘z va iboralarning bunday takrorlari misralarning paralelligini kuchaytiradi, matndagi muhim tushunchalarni alohida ta’kidlash uchun xizmat qiladi, sgu bilan she‘riyatda musiqiylikni, ohangdorlikni ta‘minlaydi. She‘r tuzilishining doimiy elementlari hisoblangan vazn, qofiya va band birgalikda, aloqada yashaydi.

She'rdan har qaysi banddan keyin qaytariladigan bir xil misralar refren bo'lib, ba'zan ana shunday takrorlanuvchi, qaytariluvchi misralar vazifasini iboralar bajarishi mumkin. Quyida keltiriladigan misralardagi iboralarning shoir Muhammad Yusuf ijodining musiqiylikni, ohangdorligini yanada oshirishga xizmat qilganligining guvohi bo'lamiz:

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,

Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi (267-b).

Bu misra shoirning "O'zbekiston" she'ridan olingan bo'lib, "vahmi kelmoq, "rahmi kelmoq" iboralari misrada qofiyadosh bo'lib kelgan.

Endi ul zot yallo qilib yuraverar,

Invalidning mashinasin suraverar,

Uni ko'rsam chol esimga kelaverar,

G'ildiragi yuagimni ezaverar...

Yoqub cholga berishmagan "Zaporoj"ning! (159-b).

Yuqoridagi misrada "yallo qilib yurmoq", "esiga kelmoq", "yuragini ezmoq" iboralari qofiya hosil qilib, she'r misralaridagi musiqiylikni ta'minlagan. Demak, biz yuqoridagi fikrlarimiz orqali Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan iboralarning uzual va okkozional uslubiy vazifalariga alohida to'xtalib o'tdik. Umuman olganda, biz shoir Muhammad Yusufning poeziyasida qo'llanilgan frazemalarning uslubiy vazifalarini, ularning she'rlarda aks etish holatlarini ozmi-ko'pmi yoritib berishga harakat qildik. Biz shoirning faqatgina bitta 2007-yilda nashr etilgan "Saylanma"sidan foydalandik, bundan tashqari uning bu kitobga kiritilmagan she'rlarida ham umumtil iboralarning 500 dan ortiq varianti qo'llanganligini yuqorida alohida qayd etib o'tdik. Shoir ijodi shunchalik rang-barangki, qaysi she'rini o'qimang, umumtil iboralarning bir emas, bir qancha variantlari o'z aksini topgan. Shoirning she'rlari allaqachon xalqimiz tomonidan yod bo'lib ketganligi, mashhur san'atkorlarimiz tomonidan esa qo'shiq bo'lib

yangrayotganligi soʻzlarining xalqona va sodda tilda bayon etilganidan boʻlsa kerak.

III BOB.

MUHAMMAD YUSUFNING FRAZEMALARDAN IJODIY FOYDALANISH MAHORATI HAQIDA

3.1 Muhammad Yusuf poeziyasida frazemalarni struktur-semantik o'zgartirish usullari.

Muhammad Yusuf ijodini o'rganish davomida uning she'rlarida qo'llanilgan iboralardagi so'zlar tarkibida ma'lum darajada o'zgarishlar kuzatilganligini ham ko'rish mumkin. Bunday holatda iboralar o'z ma'nosini o'zgartirishi yoki qo'shimcha ma'noga ega bo'lishi ham mumkin. Shoir ijodida qo'llanilgan iboralarni struktur-semantik jihatdan o'zgartirilganligini quyidagi jihatlariga ko'ra ajratish mumkin:

3.1.1. Iboradagi biror bir so'z ma'nodosh leksema bilan almashtirilishi.

Iboralar gap tarkibida qo'llanilganda, boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishadi. Ana shunday holatlarda iboralarning tarkibidagi komponentlar boshqa bir so'z – komponent bilan almashtiriladi. Shunday iboralardan “*dilini dog'lamoq*” iborasi *dili ranjimoq, xafa bo'lmoq* ma'nolarida qo'llanilib, shoirning “*Vatanim*” nomli she'rida quyidagicha keltirilgan:

O'tgan kuning - o'tgan kundir,

O'z boshingga yetgan kun,

Qodiriyni sotgan zamin,

Qodiriyni sotgan kun.

Qo'lin bog'lab,

Dilin dog'lab,

Yetaklashib ketgan kun,

Voh bolam! deb aytolmagan

Dudug'imsan, Vatanim (11-b).

Bu iboraga e'tibor qilinsa, u "*dilini siyoh qilmoq*"²³ iborasining sinonimik o'zgartirilgan varianti ekanligini kuzatish mumkin. Bu o'zgartirish natijasida darjalanish, ya'ni ma'noning kuchliroq ifodalanishi kuzatilgan. Birinchi misradagi *bog'lab* so'ziga qofiyadosh sifatida *dog'lab* so'zining tanlanishi ham shoirning ijodiy dunyoqarashidan kelib chiqqan bo'lib, she'rga yanada go'zallik olib kirganligini ta'kidlash lozim. Shoirning "Saylanma"sig'a kiritilgan "*Ketar bo'ldim*" nomli she'rda "*tilidan bol sochilmoq*" iborasi keltirilgan. Bu ibora komponentlari *og'iz*, *tommoq* so'zlari bilan almashtirilganligini, bu so'zlarga ma'nodosh sifatida *til*, *sochilmoq* so'zlarining tanlanganligini alohida ta'kidlash lozim. Ya'ni, bu iboraning "*og'zidan bol tommoq*" varianti O'TIFL (201-b) da ham izohlanganligini aytib o'tish lozim. "*Tilidan bol sochilmoq*" iborasining she'r misrasida qo'llanishiga e'tibor qaratamiz:

Yor, eshiging ochilmadi men uchun,

Tilingdan bol sochilmadi men uchun.

Uyingdan joy topilmadi men uchun –

Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay... (53-b).

Muhammad Yusuf she'rlarida iboralarning mohirona qo'llanganligi she'r mazmunining estetik quvvatini oshirish barobarida, ma'lum o'rinlarda ta'sirchanlikni kuchaytirganligini, ayrim hollarda esa so'z o'yini hosil qilganligini kuzatish mumkin. Uning "*Tilak*" nomli she'rda keltirilgan "*yelkasidan tog' tushmoq*" iborasi tarkibidagi *tushmoq* so'zi *ag'darilmoq* so'zi bilan almashtirilib qo'llanganligini poetik ehtiyoj nuqtayi nazaridan deb hisoblash mumkin. Ko'pincha bu ibora "*yelkasidan tog' ag'darildi*" *mushkuli osonlashdi, qiyin vaziyatdan chiqib ketdi* ma'nolarida qo'llaniladi. Shoirning quyidagi misrasida esa "*yelkasidan tog' tushsin*" shaklida istak, tilak, yaxshi niyat ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Iymoni sof, yuzga kirib yorug' yuz,

To'ylar qilib yelkasidan tog' tushsin.

Jismiga so'nggi sfar oldidan

²³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.- Б. 71.

O‘z bolasin qo‘lidan tuproq tushsin... (190-b).

Shoirning “*Yig‘lab turing*” nomli she‘rida “*joni chiqmoq*” iborasi mohirona o‘zgartirilganligini ko‘rish mumkin:

Egar bo‘ldik egilmagan boshimizni,

Tandan bu jon ketmasmidi siz ketguncha.

Aldamchi deb atamasman also Sizni –

Qiz bolaning va‘dalari bo‘y yetguncha,

Ko‘ngil uchun yig‘lab turing to‘y o‘tguncha! (168-b).

“*Joni chiqdi*” iborasi o‘lmoq, so‘nggi bora nafas chiqarmoq ma‘nosida qo‘llaniladi (O‘TIFL, 101-b). Demak, yuqoridagi misrda qo‘llangan “*joni ketmoq*” iborasi ham xuddi shunday ma‘noda o‘zgartirilgan shaklda ifodalangan. *Chiqmoq* so‘zining o‘rniga *ketmoq* so‘zi qo‘llanganligini ko‘rish mumkin.

3.1.2. Iboralarning so‘z qo‘shish orqali kengaytirilishi.

Muhammad Yusuf ijodida bunday usulda qo‘llangan iboralar ham uchraydi. Masalan, shoirning “*Muhabbat*” nomli she‘rida keltirilgan “*boshni yerga egmoq*” itoat qildirmoq, bo‘ysundirish ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lib, bu ibora “*boshini egmoq*” iborasining kengaytirilgan shakli sanaladi:

Ne qilarding menga tegib sen,

Yengilmagan edim-yengib sen,

Boshlarimni yerga egib sen,

Qomatimni bukib qo‘yding-ku (14-b).

Bu ibora *yerga* so‘zi bilan kengaytirilganini aytish lozim. Iboraning kengaytirilishi natijasida ma‘noning kuchayishi kuzatilgan.

Iboralarni so‘z yoki birikmalar orqali kengaytirish ma‘noni yanada aniqlashtirib izohlab berishga yordam beradi. Shuningdek, shoir ijodida “*ko‘ngli ezilmoq*” qandaydir narsadan qattiq azoblanmoq, ruhan ezilmoq ma‘nosini ifodalab, quyidagi misrada “*ko‘nglini ezib o‘tdi*” shaklida qo‘llanilgan:

Qo‘ltiqtayog‘iga

Suyanib bir chol,

Kelaverdi shoshmay,

Yuzida malol.

Yo‘lim to‘sib o‘tdi,

Ko‘nglim ezib o‘tdi,

Mehrim qo‘zib ketdi

Bir so‘z demadim (147-b).

Bu ibora she‘rdagi *yo‘lim to‘sib o‘tdi* misrasiga qofiyadosh tarzda *ko‘nglim ezib o‘tdi* shaklida kengaytirilgan. Bundan tashqari, shoirning “*Ko‘zmunchoq*” nomli she‘rida keltirilgan “*ko‘nglini so‘ramoq*” iborasi *boshiga xafachilik , musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol- ahvolini so‘ramoq* (O‘TIFL,b-165) ma‘nosida qo‘llaniladi. Ushbu she‘rda bu ibora *ham* so‘zi orqali kengaytirilgan:

O‘zim bilan o‘zim band,

Yonishlaring ko‘rmasman.

Akang bo‘lib mundoq bir

Ko‘nglingni ham so‘rmasman (261-b).

3.1.3. Maqol tipidagi iboralarning qisqartirilishi va obrazli shaklda qo‘llanilishi.

Bilamizki, xalq maqollari til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan va folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janri bo‘lib, u insoniyatning uzoq asrlik tafakku taraqqiyoti mahsuli, to‘la ma‘noda xalq donishmandligining eng yuksak darajasidagi oynasidir.

Boshqa barqaror birliklar kabi shoir she‘riyatida qo‘llangan maqollarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Barcha buyuk san‘atkorlari kabi Muhammad Yusuf ham xalq maqollaridan unumli va o‘z o‘rnida keng foydalanadi. ularni orginal nutq vaziyatlariga muvofiq qo‘llay bildi, yuksak darajadagi pragmatik qiymat baxsh etdi.

Muhammad Yusufning asarlari keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallanganligi sababli unda xalqonalik va xalqchillikni ta‘minlash maqsadida xalq maqollarining turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan. Ular irsoli masal san‘atining yuksak namunasi bo‘lib qoldi. She‘riyatda fikrlarning quvvatlovchisi,

mustahkamlovchisi, informativlik va ekspressivlikning yaxlitligi sifatida namoyon bo'ldi.

Quyida shoirning asarlarida qo'llangan maqollarning til xususiyatlari xususida to'xtalamiz.

Shoir she'riyatida juda ko'plab maqol, matal shaklidagi iboralar aynan qo'llanilishi bilan bir qatorda, ularning qisqargan shakllari ham uchraydi. Shoir o'z she'rlarining ta'sirchanligini oshirish maqsadida xalq maqollarini keltirib, uning ma'nosiga yangi ma'no va tasvir baxsh etishga intilgan. Masalan, shoirning "Xalq bo'l, elim" nomli she'rida o'zbek adabiy tilida keng qo'llaniladigan "Bir mayizni qirrqqa bo'lib yegan" maqoli kiritilgan. Bu maqol she'r mazmuniga obrazlilik baxsh etgan:

*Sen tebratgan beshigingni Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo'ygan Narvon.
Bir mayizni qirrqqa bo'lgan bir tanu jon,
Kunlaringga qaytay desang - xalq bo'l, elim (10-b).*

Bu ibora she'r misralarida aynan maqol holida keltirilib, she'r obrazlilikining va ta'sirchaligining yanada oshishiga xizmat qilgan. Shoir bu maqolni aynan keltirib, she'rda ifodalangan g'oyaning, maqsadning o'quvchiga tezroq yetib borishini ta'minlagan. Bundan tashqari shoirning quyida keltirilgan misrasida ham o'zbek xalq maqollarida biri qo'llanilgan:

*Bo'lingan bo'lisning o'chgay chirog'i,
Ortga bir qayriling, mingta qiyos-ku.
To'pga tutgan kuni Toshkentni yog'iy,
Amir Nodirani so'ygani rost-ku... (251-b).*

Bu maqol ham she'r mazmuniga mos ravishda obrazli tarzda qo'llanilgan. Shoir o'z she'rlarida o'zbek xalq maqollarini keltirish orqali xalqonalikni yanada kuchaytirgan. Shoirning "Osmonning oxiri" dostonidan olingan parchada "Har kim ekkani o'radi" maqolining qisqartirilgan "ekkanini o'rmoq" shakli keltirilgan. Bu iboradan kim qanday harakat qilsa shunga erishadi, nimani ekkani

bo'lsa shuni oladi degan ma'no anglashilib, xalqimiz tomonidan juda ko'p hollarda ishlatilib kelinadi. Doston matnida quyidagicha keltirilgan:

Menga ayting-chi, bahorning egasi kim?..

Boychechakning boshlig'i, binafshaning xo'jayini-chi?..

Ekkaningni o'rasan. Ekmaganingni esa, ko'rasan, xolos (105-b).

Shoir Muhammad Yusufning "Hayrat" nomli she'rida "Igna bilan quduq qazmoq" maqolining "ignada qazmoq" qisqartirilgan shaklidan foydalanilgan. Bu maqol qiyin ishni uddalamoq, mushkul ishni bajarmoq ma'nosida ishlatiladi.

Tasma-tasma tarixing

Tugamas yozgan bilan.

Ko'shkingu ko'rkingni ko'z

Ilg'amas yozgan bilan,

Har minoring osti ming

Ignada qazgan bilan...

Sen o'zing ayt, Onajon,

Sen o'zing aytgil, Vatan,

Inshoolloh, inshoolloh,

Aslingga qaytgil, Vatan (242-b).

Shoir she'r mazmuniga, uning qofiyasiga mos ravishda bu maqolni qisqartirib, ibora shaklida mohirona qo'llagan. "Jon sog' bo'lsa jahon topilgay" maqolining "Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi" varianti xalqimiz tomonidan ishlatiladi. Shoir esa o'zining quyidagi she'rida bu maqolning obrazli tarzda o'zgargan shaklidan foydalangan. Bu maqol joni sog'-salomat bo'lish, hamma narsa sog'liq bilan bog'liq ekanligini ifodalashga xizmat qiladi:

Derlar: jon sog' bo'lsa jahon topilgay,

Bir parcha yer, parcha osmon topilgay,

Lekin qayda sendek jonon topilgay,

Ketar bo'ldim o'zingdan bir so'rolmay... (53-b).

Muhammad Yusufning "Lolaqizg'aldoq" nomli she'ridan olingan quyidagi misrada:

Endi osmon yiroq,

Endi yer yumshoq (264-b) shoir tomonidan “Osmon uzoq, yer qattiq” maqoli mohirona o‘zgartirilib, *uzoq* so‘zi o‘rnida unga ma‘nodosh bo‘lgan *yiroq* hamda *qattiq* so‘zi o‘rniga uning antonimi *yumshoq* tanlab olingan va qo‘llangan. Maqol bog‘lovchisiz qo‘shma gapdan tashkil topgan bo‘lib, ikkala gapdagi ega antiteza hosil qilgan, ya‘ni, *osmon-yer*, ikkinchi soda gapning kesimi qattiq o‘rniga yumshoqning tanlanishi sababini quyidagicha izohlash mumkin: “Osmon uzoq, yer qattiq” maqoli “haddan tashqari og‘ir ahvolga, noilojlik holatiga tushib qolgan kishilar tomonidan ilojim qancha ma‘nosida qo‘llaniladi.

Muhammad Yusuf she‘rlarida maqollarning qo‘llanishi xususida D.Shadiyeva nomzodlik dissertatsiyasi 1-bobining so‘nggida o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tgan. Bu dissertatsiyada bir qancha maqollar tadqiq etilgan va ma‘nolari izohlangan. Dissertatsiyada maqollardagi ayrim so‘zlarning grammatik jihatdan o‘zgartirib qo‘llanishi, ular tarkibida ayrim leksik o‘zgarishlar yuz berishi, maqollarda so‘z tartibining o‘zgarishi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Ma‘lumki, asrlar davomida xalqimizning ongi, ma‘naviyati shakllanib, sayqal topib bordi va ajdodlarimizning ko‘p yillik tajribasi o‘laroq topib aytgan har bir so‘z va hikmatli iboralari avloddan-avlodga o‘tib, maqol janriga asos soldi. Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng ixcham, mazmunli ifodasi va kishilar nutqida ishlatiladigan ta‘sirchan, qisqa va mantiqli shakl sifatida bugungi kunda ham faol nutq birlik-laridan hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, maqollar she‘riyatda muhim o‘rin tutadi, jumladan, maqolalar tilida muhim ta‘sirchan vosita sifatida ishlatilayotganligi ma‘lum. She‘riyatda maqollarning qo‘llanishi, birinchidan, kitobxonning diqqatini tortishga va maqolani qiziqib o‘qishga undaydi, ikkinchidan, bir xillik, ya‘ni til birliklarining takroriga yo‘l qo‘ymaslikka sabab bo‘ladi, uchinchidan, fikrning ixcham, aniq, mazmunli, ekspressiv-stilistik bo‘yoqdor bo‘lishiga xizmat qilsa, to‘rtinchidan, xalq og‘zaki ijodining nodir namunasi misolida nutqimizni boyitishga, ma‘naviy tarbiya olishimizga yordam beradi.

Xullas, maqollarning she'riyatda aynan, o'zgarishsiz, qisqartirilgan, o'zgartirilgan shakllarda ishlatilishida o'ziga xos e'tiborli jihatlar mavjud. Birinchidan, maqolni aynan qo'llash va matnda takrorlash yoki mazmunini materialga singdirish kabi holatlar maqoldagi fikrni o'quvchiga to'la yetkazishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, qisqartirilgan maqollar she'rlarda ixchamlik va ta'sirchanlikni ta'minlaydi. Ularning matn bilan uyg'unlashib, maqol mazmunini to'liq ifodalashi uslubiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, qisman o'zgartirilgan yoki oddiy jumlagi mazmuni singdirilgan maqollar ham ekspressiv-stilistik qimmatga ega. Ular she'riyat tilining jonliligini, ya'ni jonli so'zlashuv nutqiga yaqinlashishini, tushunarli, sodda bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, shoir umumtil iboralardan unumli foydalangan. Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan frazeologik birliklar ichida ko'p ma'noli frazemalar tarkibida tana a'zolari nomlari (somatizmlar) bo'lgan frazemalar borligiga ham e'tibor qaratdik. Bunday somatik frazemalar til madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va ma'rifati xalqasida o'ziga xos o'rin tutadi. O'z navbatida har qanday somatik frazemani shoir mahoratining xosilasi sifatida qarab, ularda shoir she'riyatining o'ziga xos qirralari namoyon bo'lganini aytish mumkin. Endi mana shunday somatik frazemalarni tahlil qilishga e'tibor qaratamiz. Demak, quyida keltirilgan iboralar ko'ngil komponentli iboralar bo'lib, bunday iboralar shoir ijodining deyarli oltmish foizini tashkil qiladi.

Muhammad Yusuf ijodida qo'llanilgan somatik iboralar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Biz bob bo'limining mazkur qismida ularning ba'zilariga to'xtalamiz. Iboralardan foydalanish fikrimizni yanada ta'sirchan ifodalashga, ekspressiv-emotsionallikni ta'minlashga, til mazmunini yanada boyitishga yordam beradi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilarimiz ijodida iboralardan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek she'riyatining yorqin vakili bo'lgan shoir Muhammad Yusuf o'z she'riyatida umumtil iboralaridan juda ko'p o'rinlarda foydalanganligini ko'rish mumkin. Shoir "Saylanma"si (2004)da 700dan

ortiq, “Ulug’imsan vatanim” to’plami (2004)da esa 400dan ko‘proq o‘rinda frazemalarning qo‘llangani tilshunos olimlarimiz tomonidan o‘rganib chiqilgan²⁴.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Yusuf o‘z poeziyasining ta‘sirchanligini, obrazlilikini ta‘minlashda iboralardan unumli foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda Muhammad Yusuf ijodida qo‘llangan iboralar orasida “ko‘ngil” leksemasi qatnashganlari ko‘pchilikni tashkil etishini alohida ta’kidlab, quyidagi namunalarga e’tibor qaratamiz:

*Ona chumchuq aylanib ketmas,
Ko‘ngliga qil sig‘masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig‘lasa kerak.(S.,45)
Ko‘nglingizni oldimi shum yangolari,
Aldab yo‘lga soldimi yo hiylolari,
Ko‘zingizni oldimi yo tillolari-
Sevgimizni zarlariga sotdingizmi?(S.,45)
Tushunmadim muhabbatning shevasiga
Ko‘ngil berdim senday qizning nimasiga,
Nega mindim omonat ishq kemasiga,
O‘z umrimni o‘zim qildim vayron-vayron,
Yolg‘onchi yor, yolg‘onlaring tugar qachon!...(S.,46)²⁵
Qo‘ltiqtayog‘iga
Suyanib bir chol,
Kelaverdi shoshmay,
Yuzida malol.
Yo‘lim kesib o‘tdi,
Ko‘nglim ezib o‘tdi,
Mehrim qo‘zib ketdi*

²⁴ Йўлдошев Б. Муҳаммад Юсуф поэзиясида фразеологизмларнинг қўлланилиш хусусиятларига доир // Қўшиқ бўлиб қайтган шоир. Муҳаммад Юсуф шеърятини поэтикасига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари – Самарқанд: Самду нашри, 2014. -Б. 52-56.

²⁵ Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Тошкент: “Шарк”, 2007. –Б. 45-46.

Bir so'z demadim.(S.,147)

Badiiy nutqda iboralar ba'zan o'zgarishlar bilan, ba'zi hollarda esa umuman o'zgarishsiz asl holida qo'llanaveradi. Biz keltirgan misollarda ham iboralar hech qanday o'zgarishsiz qo'llanganini ko'rib turibmiz. Misralarda keltirilgan "ko'ngliga qil sig'maydi", "ko'nglini olmoq", "ko'ngil bermoq", "ko'ngli ezilmoq" kabi iboralarning barchasida ko'ngil so'zi ishtirok etgan. Bu iboralar "O'zbek tilining izohli fzaeologik lug'ati"da ham aynan shu shaklda berilgan. Demak, "ko'ngliga qil sig'maydi" iborasi *ko'ngli g'ashligidan hech nima sig'maslik*, uning sinonimi sifatida "yuragiga qil sig'maslik" iborasi ham ishlatiladi (O'TIFL,163). "Ko'nglini olmoq" iborasi xursand qilish maqsadida o'ziga xayrixoh qilish degan ma'noni bildiradi (O'TIFL,165). "Ko'ngil bermoq" iborasi *sevmoq, oshno bo'lmoq, oshiq bo'lmoq* ma'nolarida ishlatilsa (O'TIFL,153), "ko'ngli ezilmoq" iborasi esa *qandaydir sabab tufayli yuragi ezilishi, siqilishi* ma'nolarini ifodalaydi (O'TIFL,171)²⁶. Muhammad Yusufning badiiy poetik mahorati yuqoridagi barcha misollarimizda o'z aksini topgan. Bu iboralarning she'riy matnda xuddi shunday shaklda aks etishi ham shoirning betakror iqtidor sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Ne qilardi oydekkina singlim bo'lsa,

Sharqiragan soydekkina singlim bo'lsa,

To'qqiz o'g'il tug'sa ko'rib, ko'nglim to'lsa,

Jiyanim-ov...(S.,146)

Bormasa yurt kutar, qanday ko'z yumur,

Kelmasa ko'ngil g'ash, et jimir-jimir,

Muhtojlik ko'rmay ham yashab bir umr,

Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.(S.,246)

Sayrab yurt ajratmoq fe'linga yiroq,

Buxor minorlari ko'nglim etar tog',

Menga Samarqand ham azizdir, biroq,

²⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

*Nechun qulluq qilmay Andijonga men.(S.,234)*²⁷

Shoirning bu misralarida ham umumtil iboralarning she'r mazmuniga mos ravishda qo'llanganligining guvohi bo'lamiz. Bu esa uning tilimiz ravnaqiga, uning ta'sirchanligini oshirishga qo'shgan o'ziga xos hissasi hisoblanadi. Misralardan yuqorisidagi "ko'ngli to'lmoq" iborasi *biror bir ishdan mamnun bo'lmoq* ma'nosida ishlatiladi (O'TIFL,169). Ushbu she'rda ham shu ma'noda qo'llanganligini aytish mumkin. Keyingi misradagi "ko'ngli g'ash" iborasi *qandaydir tashvishi bor, o'ylardan ko'ngli g'ash insonlarga nisbatan* ishlatiladi (O'TIFL,164). So'ggi misrada keltirilgan "ko'nglini tog' etmoq" iborasi *ko'nglini tog' kabi yuksaltirmoq, tog'day ko'tarmoq* ma'nosida qo'llaniladi (O'TIFL, 169)²⁸. Shoir poeziyasining betakrorligini, o'qimishlilikini, jozibador va ohangdorligini ta'minlashda iboralarning sezilarli mazmun kasb etganligi yuqorida keltirilgan misralarda ham o'z aksini topgan. Muhammad Yusuf tili va uslubi anchayin sodda va tushunarli. Shuning uchun ham uning she'rlari o'z kitobxonlari ko'nglidan joy olib ulgurgan.

Umumtil iboralarining emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg'ularni, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarni ifodalashi bilan bog'liqdir. Tilimizdagi frazeologik birliklar, ya'ni, iboralarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan bo'lib, ular kishining biror bir fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, hatti-harakatini baholashga xizmat qiladi. Shoir Muhammad Yusuf ijodida ham iboralar kishilarga qarata aytiladi, ularga ta'sir etishga, qalblaridan chuqur joy olishiga yordam beradi. Shu sababli ham shoirning barcha she'rlari allaqachon o'z muxlislari qalbidan joy olib ulgurgan. Keyingi to'xtaladigan iboralarimiz inson tana a'zosi hisoblangan ko'z bilan bog'liq bo'lgan somatik iboralardir. Shoir ijodida bunday iboralar ham anchaginani tashkil qiladi. Endi mana shunday iboralarning shoir she'rlarida qo'llanishiga diqqat qilsak:

Tamom!

Endi she'rim chiqmaydi, ona,

²⁷ Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Тошкент: "Шарк", 2007.

²⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

Ko 'z-ko 'z qilolmaysan yelib-yugurib.

Suyunchi so 'rmaysan cho 'loq otamdan

Yupqa jild kitobim ko 'zingga surib. (S.B-44).

Shoir Muhammad Yusufning yuqorida keltirilgan misrasida qo'llangan iborada ko'z leksemasi qatnashgan. "Ko 'z-ko 'z qilmoq" iborasi nutqimizda maqtanmoq, maqtamoq ma'nolarida qo'llaniladi. Bu ibora O'TIFL da keltirilmagan, lekin kishilar tomonidan turli xil vaziyatlarda qo'llanilib keladi.

Senga qarab ko 'zim pishmoqda,

Seni o 'ylab ko 'ngil uvishmoqda.

Kelin orzu qilib, bag 'rimni tilib

To 'shak qavir qari onam qishloqda...

Aldab nima qilasan? (S.B-91).

"Ko 'zi pishmoq" iborasi ham nutqimizda unumli qo'llaniladi. Bu ibora O'TIFL (b-141) da "anchagina o 'rganib, tajribasi ortgan" degan ma'noda qo'llanishi izohlangan. Demak, bu misrasida ham hayotni ko 'rib, tajribasi ortib qolganligini ifodalab berishga harakat qilgan.

Qa 'riga qaradim- ko 'zlarim tindi.

Yo 'q, ko 'zim ochildi- qo 'ydimu qadam.

Hayratimquduqqa to 'kildi endi

Men boshqa odamman,

Men boshqa odam. (S.B-113).

Bu misradagi "ko 'zi ochilmoq" iborasi yaxshini yomondan, oqni qoradan farqlamoq ma'nosida qo'llangan (O'TIFL, b-141).

Bormasa yurt kutar, qanday ko 'z yumur,

Kelmasa ko 'ngil g 'ash, et jimir-jimir,

Muhtojlik ko 'rmay ham yashab bir umr,

Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa. (S.b-246).

"Ko 'z yummoq" iborasi ko 'ra-bila turib e 'tiborsiz bo 'lmoq ma'nosini bildiradi (O'TIFL, b-150).

Bu bahaybat hovlida

Nozikkina qiz yashar

Bir kun ko'zim tushgan, u

Bizlar tengi, biz yashar. (S.B-152).

“*Ko'zi tushmoq*” iborasi esa *bexosdan, kutilmaganda ko'rib qolmoq* (O'TIFL, b-142). Yuqoridagi misralarda qo'llanilgan iboralarning deyarli barchasi O'TIFL da ham keltirilganligining guvohi bo'lamiz, bu iboralar shoirning ijodiy mahoratiga ko'ra misralarda o'z ifodasini topgan.

Yuqorida kuzatganlarimiz *ko'ngil* va *ko'z* komponentli somatik frazemalar sanaladi. Shoir ijodida bundan tashqari, *bag'ir, bosh, burun, bo'yin, manglay, ko'krak, og'iz, peshona, qovoq, til, yurak* singari inson tana a'zolari ishtirok etgan frazeologik birliklarni ham uchratishimiz mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak bo'lgan ayrim ma'lumotlarga to'xtalamiz. Shu kunga qadar tilshunoslikda somatik frazemalar masalasi juda ko'plab tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etgan va hozirgi kunda ham bu an'ana davom etib kelmoqda. Aslida somatik frazema doirasini keng ma'noda tushungan ma'qul deb hisoblashadi tilshunos olimlar, ya'ni, hayvonlarning ayrim tana a'zolari nomlari (*shoh, tuyoq, dum* kabi) kishilarning xatti-harakatini ifodalaydigan frazemalar (dumini tutqizmaslik, dumini tugmoq, dumi xurjunda, tuyog'ini shiqillatmoq, shohi sindi, shohi bormi kabilar) ni ham somatik frazemalar tarkibiga kiritib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ayrim tilshunoslar somatik frazemalarni tadqiq etish tilshunoslikning alohida sohasi, deb hisoblaydilar. Lekin bu fikrga hamma ham qo'shilavermaydi, negaki somatizmlar asosida shakllangan iboralar ham tilning frazeologik tizimi tarkibiga kiradi hamda u yoki bu tildagi barcha iboralar yaxlit holda frazeologiya fani tomonidan o'rganilishi lozim. Umuman olganda, tilshunoslikda leksik somatizmlar hamda somatik frazemalarning struktural-grammatik xususiyatlari ma'lum darajada o'rganilgan. Ammo hali shu kungacha somatik frazemalarning lug'atlarda izohlanish tamoyillari maxsus kuzatish obyekti bo'lgan emas. Tilshunoslikdagi kuzatishlar shundan dalolat beradiki, o'zbek tilida aniqlangan 264 ta ko'p ma'noli frazmadan 84 tasi(uchdan bir qismi) somatik frazema bo'lib, ularni shakllantirishda 23ta

leksik somatizm (*barmoq, bag'ir, bel,bosh, burun, bo'yin, ko'z, kekirdak, iyig', ichak, oyoq, og'iz, pay, suyak, til, tish, yurak, yuz, qadd, qovoq, quloq, qo'l, halqum*) ishtirok etgan²⁹.

Tana a'zolari bilan bog'liq iboralarning tilimizda ko'p ishlatilishini yuqoridagi fikrlar ham isbotlab turibdi. Shoir Muhammad Yusuf she'riyatida ham somatik iboralarning o'rni beqiyosdir. Shoir ijodida qo'llanilgan iboralar orasida *bag'ri tilinmoq, bag'ri xun, bag'ri tilim, bag'ri tosh* kabi bag'ir komponentli, *burnini yerga ishqamoq, bo'yin egmoq, og'zini to'ldirmoq* kabi burun, bo'yin, og'iz komponentli, *manglayi qora, manglayiga bitgan* kabi manglay komponentli, *yuragi ezilmoq, yurak-bag'ri qon, yuragi sel bo'lmoq, yuragini qon qilmoq, yuragi kuymoq* kabi yurak komponentli somatik iboralar keltirilgan va bu iboralar she'r mazmunini boyitishga, uning ta'sirchan va ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan. Ularni o'z she'rlariga obrazlilik baxsh etish maqsadida kiritib, she'rlarining ifodaviyligini, ta'sirchanligini oshirishga harakat qilgan. Shoir o'zining ijodkorligidan, novatorligidan foydalanib, individual – ijodiy iboralar yaratishga ham harakat qilgan.

3.2. Muhammad Yusufning ijodiy frazema yaratish mahorati.

Shoir she'rlarida iboralarning o'rni beqiyos ekanligini quyidagi keltirilgan she'rlarida misollar orqali bilib olishimiz mumkin. Tilimizda “*to'kmoq*” fe'li suv, choy, ovqat va shunga o'xshash suyuq narsalar bilan birikib, so'z birikmasi hosil qilish imkoniyatiga ega: *suvni to'kmoq, choyni to'kmoq, ovqatni to'kmoq* kabi. Shoir esa *to'kmoq* fe'lini *yurak* so'zi bilan bog'lab, “Muhabbat” nomli she'rida “*yuragini to'kib qo'ymoq*” individual iborasini hosil qilgan. Bu iboraning lug'atlarda mavjud emasligi, tilimizda ham ishlatilmasligi, uning individual muallif iborasi ekanligidan dalolat beradi:

Muhabbat, ey go'zal iztirob,

Ey ko'hna dard, ay ko'hna tuyg'u.

Ko'kragimga qo'lingni tirab,

Yuragimni to'kib qo'yding-ku (14-b).

²⁹ Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. - Тошкент: Мухаррир, 2013. –Б.165.

Xuddi shu she'rida keltirilgan "*ruhini chok-chokidan so'kib qo'ymoq*" iborasi ham shoir tomonidan yaratilgan ijodiy ibora ekanligini aytish lozim. Tilimizda "*yuragi chok bo'ldi*", "*dili chok bo'ldi*", "*bag'ri chok bo'ldi*" iboralari mavjud bo'lib, "*yuragi pora-pora bo'ldi*" ma'nosini ifodalaydi. Yuqoridagi ibora esa mana shu iboralarga ma'no jihatdan yaqin bo'lib, she'rda muallif tomonidan individual qo'llangan hisoblanadi:

Qancha ko'zlar menga zor edi,

Na g'am, na anduhim bor edi.

Qushday yengil ruhim bor edi,

Chok-chokidan so'kib qo'yding-ku (14-b).

Yuragini sog'inchi g'ijjak qilib chalmog – shoir tomonidan yaratilgan ijodiy mahorati mahsuli, sog'inchi qiynashi ifodalangan.

Osmon olis, osmon jim,

Osmon quloq soladi:

Yuragimni sog'inchim

G'ijjak qilib chaladi (49-b).

Muhammad Yusuf ijodiy mahoratini ishga solgan holda, bir qancha iboralarni o'z ijodida mohirona qo'llab, individual iboralarni shakllantirgan. Ayniqsa, uning *ruh* so'zi bilan bog'liq iboralari ijodiy mahoratidan, izlanishlaridan va kuzatishlaridan yaralgan bo'lib, quyida ularning ba'zilarini misralarda qo'llanishiga e'tibor qaratamiz. "*ruhi jonini cho'qimoq*" bu ibora ham shoir tomonidan qo'llangan ijodiy ibora bo'lib, qiynalmoq, azob chekmoq ma'nosini ifodalaydi:

Yana qaysar ruhim

Jonimni cho'qir,

Yoz deydi,

Singiljon, qo'rqay nimadan?..

Eng go'zal she'r – Sening yorilgan qo'ling,

Hamma boshliqlarning

Boshlig'I - Vatan.. (40-b).

“*Ruhini qaqshatmoq*” – azoblamoq, qiynamoq ma’nosida ishlatilgan. Shoirning so‘z tanlashdagi mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan iboralardan biridir:

Hali tuprog‘ingiz sovimay turib,

Ruhingiz qashatdik qabringiz surib.

Chig‘atoy tomonga ketdingiz yurib,

Bizdan rozi bo‘ling ruhi notinch zot (60-b).

“*Ruhini siylamoq*” – nafsiga taslim bo‘lmoq, aytganiga quloq solmoq. Shoir tomonida qo‘llangan individual ibora sanaladi.

Mening qonim buncha qaynoq bo‘lmasa?

Izzatni bilmadim alp davralarda.

Xafa qilib qo‘ydim shunda uy “shoir”ni

Bir kuni ruhimni siylab serzarda (44-b).

Shoir she’rlarini o‘qir ekanmiz, ularda qo‘llangan iboralar mazmuni va mohiyati she’r g‘oyasiga naqadar mos ekanligining guvohi bo‘lamiz. Muhammad Yusuf o‘z ishining ustasi, betakror ijodkor edi. Uning she’rlari soda va samimiy tilda yozilgan. Qalbi uyg‘oq va go‘zal bo‘lgani uchun uning she’rlarida dard bor edi. Muhammad Yusuf xalq dardini tushunardi. Xalq uchun yonib yozardi. Shu bilan birga, inson qalbining tub-tubidagi dardni topib qalamga tushira olardi. Shoirning yuragi xalq yuragi bilan hamohang urardi.

Muhammad Yusuf she’rlari orqali nafaqat o‘zining, balki xalqning, insonlarning dardlarini yoritib bera oldi. Shoirning har bir aytgan so‘zi, o‘ylagan fikrlari she’r edi. Shuning uchun ham shoir she’rlari umrboqiydir. Shoirning betakror ijodi xalq qalbida doimo saqlanib qoladi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosiyatimiz yangi qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonun asosida qat’iy davom ettiriladi”³⁰ - degan fikrlari ham Muhammad Yusufning betakror ijod namunalari

³⁰ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.-B.486.

yo'g'rilgan. Shoir yurt ishqini bilan, xalq dardi bilan yashadi, ijod qildi. Shuning uchun ham yosh avlod tarbiyasida shoir ijodining muhim ahamiyatga ega ekanligi yurtboshimizning yuqoridagi fikrlarida ham o'z aksini topgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, hozirgi kunda har tomonlama yetuk barkamol shaxsni tarbiyalash xalqimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni milliy an'analarimizga, milliy urf-odatlarimizga mos ravishda tarbiyalash yo'lida ijodkor shoir va yozuvchilarimizning ham o'rni beqiyosdir. Jumaladan, o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodini ham shular qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldiribgina qolmay, balki o'zbek adabiy tilining rivojiga ham beqiyos hissa qo'shgan. shoirning ijod namunalarini tahlil qilish, ijodiy mahoratini o'rganish tilimiz rivojiga uning asarlari tilining qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini belgilash bilan bog'liqdir.

Muhammad Yusuf she'rlaridagi ta'sirchanlikni oshirish, misralarning o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida umumtil iboralaridan unumli foydalana olgan. Shuningdek, iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, iboralarda ma'no ko'chishi bilan bog'liq hodisalarning vujudga kelishi, iboralarning uzual va okkazional uslubiy vazifalari, iboralarning struktur-semantik jihatdan o'zgartirish usullari va ijodiy frazema yaratish mahoratini yuqoridagi tahlillarimiz orqali ko'rish mumkin. Muhammad Yusuf boshqa ijodkorlar kabi she'rlarida xalq maqollari va iboralardan ijodiy tarzda unumli foydalangan. Bu jihat she'rda ta'sirchanlik, o'ynoqilik, ekspressivlik kabi xusuiyatlarni ta'minlagan. She'riyatida barqaror birikmalarning qo'llanishi she'rlarning ta'sirchanligi, ohangdorligi hamda badiiy va estetik jihatdan salmoqdorligining oshishini ta'minlagan. Muhammad Yusuf she'rlaridagi iboralar boshqa shoirlar she'rlaridagi iboralar bilan qiyoslab o'rganilganda ularda ayrim o'xshash jihatlar va farqli jihatlar mavjud ekanligi ko'zga tashalanadi. Iboralar grammatik hamda so'z tartibi jihatdan o'zgarishga uchraganda, turli xil ma'no qirralarini namoyon etadi. Muhammad Yusuf she'rlari hozirgi o'zbek adabiy tilimiz imkoniyatlarini uning nozik ma'no qirralarini xalqchilligi va soddaligi bilan namoyon eta oldi. Shu o'rinda shoirning so'zni mohirona qo'llash, yangi barqaror birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali inson ichki kechinmalarini kitobxonlarga yetarli

darajada yetkazib bera olgan. Umumtil iboralarini o‘z she’rlarida qo‘llash orqali obrazlilikni yaqqol ta’minlaganini va shu tufayli ham o‘quvchi tasavvurini boyitishga, she’r mazmunini yanada chuquqroq anglashiga xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf she’rlaridagi iboralarning ma’nodosh va ko‘p ma’noliligi, uslubiy jihatdan xoslanganligi, ijodiy mahoratidan kelib chiqqanligi boshqa shoirlar ijodidan keskin farq qiladi. Shuning uchun ham shoir ijodi xalqonaligi, urf-odatlarimiz bilan uyg‘unligi, xalq hayotining har bir jabhasini o‘zida aks ettirganligi bilan kitobxonlar qalbidan chuquqroq joy egallagan.

Muhammad Yusuf she’rlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish bir qator tilshunos olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan. Shoir she’rlarida umumtil iboralarining qo‘llanishi, ularning uslubiy vazifalari va bir qator jihatlari tadqiqot sifatida o‘rganilmaganligi bu ishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham shoir ijodida qo‘llangan iboralarni har jihatdan tadqiq qilishga, ularning o‘ziga xos tomonlarini yoritib berishga, namunalar va misollar orqali izohlashga harakat qilindi va shoir ijodida qo‘llangan iboralar o‘zbek adabiy tilini boyitishga, turli qirralarini yoritib berishga, nutqni boyitishga xizmat qiladi, degan umumiy xulosaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 592 б.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -B.486.
3. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

4. Абдусаидов А. Фразеологизмлар - матбуот тилида таъсирчан восита. - Самарқанд, 2001. - 48 б.
5. Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарқанд, 1977. - 38 б.
6. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. НДА. – Самарқанд, 2001. - 22 б.
7. Давронова М.И. Муҳаммад Юсуфнинг поэтик маҳорати. Филол.фан. номзоди...автореф. - Тошкент , 2008.- Б.25.
8. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши. НДА. – Самарқанд, 2002. - 24 б.
9. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. - Тошкент: Мухаррир, 2013. –300 б.
- 10.Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998.
- 11.Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. - Самарқанд, 2007. - 108 б.
- 12.Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. ДДА. – Тошкент, 1993. - 49 б.
13. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – 37 б.

14. Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 3-4-сон, 37-42-б.
15. Йўлдошев Б. Муҳаммад Юсуф поэзиясида фразеологизмларнинг қўлланилиш хусусиятларига доир // Қўшиқ бўлиб қайтган шоир. Муҳаммад Юсуф шеърляти поэтикасига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари – Самарқанд: СамДУ нашри, 2014 .
16. Йўлдошев Б. “Юрагимни тўкиб қўйдинг-ку” // “Зарафшон” газетаси, 2014, 14-сон.
17. Йўлдошев Б, Рашидова У. Муҳаммад Юсуф поэзиясида фраземаларнинг қўлланилиш хусусиятлари // Ўзбек тилшунослиги ХХІ асрда. : ҚаршиДУ, 2008.-Б.61-64.
18. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърларида ибораларнинг қўлланилиши // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2011, 5-сон. –Б.104- 107.
19. Шадиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърляти лингвопоэтикаси. Филол.фан. номзоди...автореф. –Т , 2007. 25 б
20. Ҳайитметов К. Фразеологик бирликларда сўзлар тартиби масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, 2-сон.
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи, 2018-йил 6-апрел, №67 (7075). – В.4.
22. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль, №28 (6722). – Б.1-2
23. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърлятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. номзоди...автореф. –Т, 2003.
24. Нормуродов Н. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. НДА. - Тошкент, 2000. - 25 б.
25. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966.

26. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. - Тошкент, 1970. - 58 б.
27. Туропова М. Ўзбек шеваларида фразеологизмлар ва уларнинг лексик состави // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987, №5. 40-44-б.
28. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. – НДА, Тошкент, 1998. – 20 б.
29. Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. ДДА. - Тошкент, 1999.
30. Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. – 135 б.
31. Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги. НДА. - Тошкент, 1994.

III. Badiiy adabiyotlar

32. Муҳаммад Юсуф. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотиралар. – Тошкент: “Шарқ”, 2007. –Б. 288.

IV. Lug‘atlar

33. Йўлдошев Б., Пардаев З. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. - Самарқанд, 1997. - 88 б.
34. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. - Тошкент: Фан, 1964. - 212 б.
35. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 408 б.
36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. - М.: Русский язык, 1981. I том - 631 б.; II том. - 715 б.
38. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1985. - 144 б.

V. Internet resurslari

39. Google.uz.

40. Ziyonet.uz.